

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR FANIDAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI

(METODIK QO`LLANMA)

Ushbu laboratoriya mashg'ulotlari o'tkazishga oid metodik qo'llanma bakalavriat ta'lim yo'nalishi standartlariga kiritilgan «Pedagogik texnologiyalar» fani sohasini qamrab oladi

Ushbu qollanmada pedagogik texnologiyalarning mohiyati va ahamiyati, pedagogik texnologiya konsepsiyasining rivojlanish tarixi, ta'limni didaktik loyihalash, didaktik jarayon, pedagogik texnologiya tamoyillari haqidagi mashg'ulotlarga tayyorlanish, guruh sharoitida o'qitishda tanqidiy fikrlash usullaridan foydalanish, o'quv keyslari va o'qitishning turli interfaol metodlari mohiyati hamda ularni qo'llashga doir ko'rsatmalar berilgan.

Mazkur metodik qollanma oliy ta'lim muassasalari, litsey va kollej o'qituvchilari hamda talabalari, shuningdek mazkur fan bilan qiziquvchilarga mo'ljallangan.

Tuzuvchilar: p.f.n. dots. D.A.Axatova
p.f.n. F.Xodjiyeva

Mas'ul muharrir: p.f.d. prof. Sh.A.Abdullayeva

Taqrizchilar: p.f.n. dots.O.Shomiyeva
p.f.n. dots. S.S. Sayitov

(Metodik qo'llanma NavDPI Ilmiy Kengashining 2011 yil 4-maydagi № 9 yig'ilishida muhokama qilinib chop etishga tavsiya qilingan)

KIRISH

Milliy istiqlol mafkuramizning bosh maqsadi ozod, obod, erkin, farovon hayotimizni barpo etishdir. Binobarin, bunday hayotning asosiy yaratuvchisi inson – uning bilimi, dunyoqarashi, faol faoliyati tashkil etadi. Yangi davr avlodlar tarbiyasiga yangicha yondashish ijtimoiy zaruriyat ekanligini ko'rsatmoqda. Mustaqil Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlar milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga, zamon talablari bilan uyg'unlashtirilgan, jahon andozalari darajasiga mos «milliy modelni» hayotga tatbiq qilishga, ma'naviyatimizni yanada yuksaltirishga qaratilgan.

Bu esa o'z navbatida talabalarning umumpedagogik bilim darajasini kengaytirishni, ma'naviy va intellektual meroslarimizga to'g'ri munosabatda bo'lishni talab qiladi.

Respublikamizdagi maktab maorif tizimimizni isloh qilish, uni yuridik jihatdan kafolatlash, mazmunan jahon talablari darajasiga ko'tarish, zamonaviy bilim egasi bulgan kadrlar tayyorlash borasida Qonunlar, dasturlar qabul qilindi va amaliy jarayonga tatbiq etib borilmoqda. Bugungi kunda Respublikamizda demokratik fuqorolik jamiyatni barpo etishda, shaxs, jamiyat, oila, Vatan oldidagi burchi, mas'uliyatini chuqur his qilgan holda erkin, mustakil fikrlovchi inson tarbiyasi, demokratik munosabatlarini shakllantirish maorif tizimining asosiy strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda ta'lim tarbiya jarayonini yangicha loyihalashtirish, yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil etish, erkin shaxs tafakkurini shakllantirish asosiy omildir.

Pedagogik texnologiyalar fanini o'qitishdan maqsad – bakalavr-talabalarni pedagogik texnologiyalarga oid bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iboratdir. Bundan tasqari ta'lim jarayonida talabalarni faolligini oshirish natijasida, ularni ob'ektdan sub'ektga aylantirishdir ham ko'zda tutiladi.

Pedagogik texnologiyalar» fanining asosiy vazifalari: bo'lajak o'qituvchilarini zamonaviy Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslariga oid bilimlar bilan qurollantirish; yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish ko'lamini kengaytirish; bu yo'nalishda ilg'or tajribalarni tatbiq qilish; darslik, o'quv qo'llanmalari va dasturlar, ma'ruza matnlarini elektron disketlarga ko'chirish va ular bilan har bir talabani

ta'minlashga erishish; ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmui hamda ta'lim va tarbiya jarayonini optimal tashkil etishdir.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar. "Pedagogik texnologiyalar" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- ta'lim sohasida davlat siyosati va strategiyasining asosiy yo'nalishlarini; Pedagogik texnologiyalar tushunchasining ilmiy asoslarini, uning kategoriya va tamoyillarini; o'quv jarayonini tashkil etish shakllari va metodlariga qo'yiladigan zamonaviy talablarni; o'quvchi shaxsi, ta'lim jarayonida shaxs sifatlarining namoyon bo'lishini; pedagogik texnologiyalarning tasnifi va asosiy jihatlarini; ta'lim jarayonini texnologizatsiyalash haqida tasavvurga ega bo'lishi; zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalarni bilishi kerak;

- shaxsning ma'naviy-axloqiy sifatlarini faol shakllanishi; ta'limga texnologik yondashuv asosida mashg'ulotlarning o'quv maqsadini qo'ya olish, pedagogik faoliyatni rejalashtirish; amaliy mashg'ulotlarni modellashtirish, qiyinchiliklarni bartaraf etish imkoniyatlarini bashorat qila olish; ta'lim oluvchi shaxsining har tomonlama barkamol rivojlanishi, ta'lim jarayonining "jonli", ijodiy tashkil etishga yordam beruvchi ta'limning zamonaviy integrativ metodlarini egallash; ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini boshqarish metodlarini egallash ko'nikmalarini egallashi zarur;

- psixologik-pedagogik adabiyotlar bilan ishlay olish; zarur metodik hujjatlarni tuza olish; ilg'or pedagogik tajribalar va pedagogika fanining zamonaviy yutuqlaridan amaliyotda foydalanish bilan o'z-o'ziga ta'lim berish bilan shug'ullanish; yengil pedagogik tadqiqotlar o'tkazish, ishga ijodiy yondashish; muloqotda ochiq va hamdard bo'lish; ijodkor, mustaqil fikrlovchi va har tomonlama barkamol shaxsni shakllantiruvchi ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish malakalariga ega bo'lishi kerak.

"Pedagogik texnologiyalar" fanini o'rganish davomida mashg'ulotlarda ta'limning axborot texnologiyalari, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, interfaol metodlar qo'llaniladi.

Hozirgi kun o'qituvchisi chuqur bilimli, mutaxassislik fanini to'liq egallagan bo'lishi bilan birga pedagogik va axborot texnologiyalarni chuqur biladigan, talabalar faolligini oshiruvchi metodlardan keng foydalana oladigan bo'lishi lozim. Bunday mutaxassis pedagog-psixolog-amaliyotchi o'qituvchi

uchun kerak bo'ladigan yuksak pedagogik mahorat va texnika ko'nikmalarini egallagan shaxs bo'lishi kerak.

Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik texnologiyaga oid ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishda Pedagogik texnologiyalar fanidan laboratoriya mashg'ulotlarining o'рни beqiyos kattadir. Bunday mashg'ulotlarda talabalar o'zlashtirgan nazariy bilimlariga muvofiq turli pedagogik texnologiyalarni va interfaol metodlarni qo'llaydilar. Bu esa bo'lajak o'qituvchi shaxsida amaliy ko'nikmalarni shakllanib borishini ta'minlab, ularning pedagogik texnika asoslarini egallab olishiga xizmat qiladi. Amaliy mashg'ulotlarda pedagogik texnologiyalarning mohiyati va ahamiyati, pedagogik texnologiya konsepsiyasining rivojlanish tarixi, ta'limni didaktik loyihalash, didaktik jarayon, pedagogik texnologiya tamoyillari haqidagi mashg'ulotlarga tayyorlanish, guruh sharoitida o'qitishda tanqidiy fikrlash usullaridan foydalanish, o'quv keyslari hamda o'qitishning turli interfaol metodlarini qo'llashga doir mashqlar bajarish ko'zda tutilgan.

Laboratoriya mashg'ulotlari davomida talabalarga turli pedagogik masalalar beriladi, turli pedagogik vaziyatlardan chiqish yo'llari o'rgatiladi. Talabalarining faollik, ijodkorlik, ishbilarmonlik hislatlarini tarbiyalashga etibor qaratiladi. Ular bilan birga pedagogik masalalarning ijobiy yechimini ta'minlashga yo'naltirilgan tadbirlar va ijodiy-tashkiliy o'yinlar tashkil etiladi. Aynan, bunday zarurat bugungi kun pedagog kadrlardan ijodkorlik, izlanuvchanlik kasbiy xislatlarini talab etadi. Ushbu qo'llanma talablarga pedagogik texnologiya elementlari, uni amalga oshirish bosqichlari, didaktik jarayonning samaradorligini oshirish, nazorat qilish, bunda pedagogik texnologiya prinsiplariga asoslanishni o'rgatishni nazarda tutadi. Laboratoriya mashg'ulotlarini nazariy savollarga javoblar va amaliy ishlar bajarish asosida tashkil etish ko'zda tutiladi. Dastlab nazariy savollar qisqacha tahlil etiladi so'ngra esa amaliy ishlar bajarishga o'tiladi.

Mazkur uslubiy qo'llanmada pedagogik texnologiyalar fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini innovatsion shaklda, turli interfaol metodlar asosida tayyorlash va o'tkazishga oid ayrim ko'rsatmalarni berishga harakat qildik.

Ko'rsatmalar yuzasidan bildirilgan taklif va mulohazalaringizni mamnuniyat bilan qabul qilamiz.

**“Pedagogik texnologiyalarning mohiyati va ahamiyati” mavzusidagi
1-laboratoriya mashg`ulotining ta'lim texnologiyasi modeli**

| | | | |
|---|--|---|--------------------|
| Mashg`ulotga ajratilgan vaqt – 2 soat | | Talabalar soni- 20-25 | |
| Mashg`ulot mavzusi | | | |
| O`quv mashg`ulotining shakli | | Laborotoriya | |
| Mashg`ulot rejasi: | | | |
| Nazariy savollar | | | |
| 1. Ta'lim tizimidagi yangiliklar. | | | |
| 2. Ta`limni rivojlantirishning yangi bosqichida pedagogik texnologiyaning ahamiyati. | | | |
| 3. «Pedagogik texnologiya» tushunchasi va unga berilgan ta`riflar tahlili. | | | |
| 4. Pedagogik texnologiya, o`qitish texnologiyasi va ta`lim texnologiyasi tushunchalari bog`liqligi va farqi. | | | |
| Amaliy ish | | | |
| A) Pedagogik texnologiyalar bo`yicha adabiyotlar bibliografiyasini tuzish; | | | |
| B) Adabiyotlar asosida pedagogik texnologiya mohiyati yoritilgan muhim joylarni qisqacha konspekt qilish. | | | |
| Mashg`u- lotning maqsadi: | - Ta`limiy - Pedagogik texnologiyalarning mohiyati va ahamiyatini o`rganish | | |
| | - Tarbiyaviy- talabada o`qituvchiga xos bo`lgan ijodkorlik, ilmga intilish, o`z ustida ishlash kabi fazilatlarni tarbiyalash, innovatsion faoliyatga tayyorlab borish. | | |
| | - Rivojlantiruvchi- talabada pedagogik texnologiyalarni o`rganib, oz mutaxassialik fanlarida qo`llab borish uchun zamin tayyorlash. | | |
| Talabaning o`quv faoliyati natijalari: | | | |
| • «Test», «reyting», «innovatsiya», «suggestivlik», «muammoli usul», «dasturlashgan usul» kabi terminlarning mazmunini tushuntirib beradilar; | | | |
| • O`zbekistonlik va xorijlik olimlar tomonidan yangi pedagogik texnologiyaga berilgan ta'riflarni tahlil qiladilar; | | | |
| • pedagogik texnologiyalar ahamiyatini misollar bilan yoritib bera oladi. | | | |
| • yangi pedagogik texnologiyalar fanining metodologik asoslari bo`yicha tasavvurga egalar va o`z fikrini erkin bayon etadi; | | | |
| • texnologik yondashish variantlarini mustaqil sanab beradilar; | | | |
| • mustaqil tarzda pedagogik texnologiyalarni turkumlarga ajratib beradilar; | | | |
| • pedagogik texnologiyalarning bosqichlarini va yoritib beradilar. | | | |
| Mustaqil o`rganish uchun topshiriqlar: | | | |
| 1. Esse yozib keling. Eslatma: 14-ilovaga qarang. | | | |
| 2. Guruhlarda ishlash qoidasi bilan tanishib chiqing. Eslatma: 3-ilovaga qarang. | | | |
| 3. O`quv topshiriqlarni bajarishga tayyorlaning. Eslatma: 4-11-ilovalar | | | |
| 4. Mavzu bo`yicha suhbat va bahs munozaraga tayyorlaning 1,3 ilovalar | | | |
| Didaktik vositalar | | Ko`rg`zmalar, slaydlar, maxsus texnik vositalar | |
| Nazorat shakli: Og`zaki nazorat, savol-javob va laboratoriyaning yozma varianti. | | Maksimal ball:3 b Talabaga qo`yilgan ball: | O`qituvchi imzosi: |

1- Laboratoriya mashg'ulotining texnologik xaritasi

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|--|---|
| | O'qituvchi | Talaba, guruh |
| 1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (10 minut) | 1.1. Talabalarni mavzuning nomlanishi, maqsadi va asosiy tushunchalar bilan tanishtiradi (1-ilova) | Tinglaydilar. |
| | 1.2. Mavzu rejasidagi masalalarni taqdim etadi (2-ilova). | Rejadagi masalalar bilan tanishadilar |
| | 1.3. Talabalarga kichik guruhlariga bo'linishni taklif etadi. Kichik guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishtiradi (3-ilova). | Kichik guruhlariga bo'linishadi. Guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishadilar |
| 2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (50 minut) | 2.1. Guruhlarga "Nima uchun" organeyzeri qoidalari tushuntiriladi, topshiriq beradi. (4,5,6-ilovalar). | "Nima uchun" organeyzeri qoidalari bilib oladilar, topshiriqni bajaradilar |
| | 2.2. Guruhlarga ekspert qog'ozlari – topshiriqlarini taqdim etadi (7-8-ilova) | Har bir guruh ekspert qog'ozlari – topshiriqlarini bajarishadi |
| | 2.3. Talabalar uyda tayyorlab kelgan adabiyotlar bibliografiyasi va ular asosida tuzilgan qisqacha konspektlarni taqdim etishni so'raydi. Pedagogik texnologiya ta'riflarini so'raydi (9-ilova) | Talabalar uyda tayyorlab kelgan adabiyotlar bibliografiyasini hamda ular asosida tuzgan qisqacha konspektlarini taqdim etishadi. Pedagogik texnologiya ta'riflarini o'zlari yozgan konspektlari asosida aytishadi |
| | 2.4. Pedagogik texnologiya, o'qitish texnologiyasi va ta'lim texnologiyasi tushunchalari bog'liqligi va farqini tahlil etish topshiriladi (10-ilova) | Pedagogik texnologiya, o'qitish texnologiyasi, ta'lim texnologiyasi tushunchalari bog'liqligi va farqini tahlil etishadi |
| 3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (20 minut) | 3.1. Har bir guruhga 4 tadan testga javob berishlarini so'raydi (11-ilova) | Testga javob berishadi |
| | 3.2. Baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini, ekspert savollariga guruhlarining javoblari natijasini, "Nima uchun" organeyzerini to'ldirganlari uchun, uyda tayyorlangan amaliy ish hamda test yechgani uchun ballarni e'lon qiladi (12-13-ilovalar) | Guruhlarining javoblariga berilgan bahoni eshitishadi |
| | 3.3. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da pedagogik va axborot texnologiyalarni rivojlantirish masalalari mavzusida esse yozib kelishni topshiradi | O'z tasavvurlarini boyitish va to'ldirish uchun topshiriqni bajarishadi. |

Mashg'ulot mavzusi

**Pedagogik
texnologiyalarning
mohiyati va
ahamiyati**

Mashg'ulot rejasi:

Nazariy savollar

1. Ta'lim tizimidagi yangiliklar.
2. Ta'limni rivojlantirishning yangi bosqichida pedagogik texnologiyaning ahamiyati.
3. «Pedagogik texnologiya» tushunchasi va unga berilgan ta'riflar tahlili.
4. Pedagogik texnologiya va o'qitish texnologiyasi: o'zaro bog'liqligi va farqi.

Amaliy ish

- A) Pedagogik texnologiyalar bo'yicha adabiyotlar bibliografiyasini tuzish;
- B) Adabiyotlar asosida pedagogik texnologiya mohiyati yoritilgan muhim joylarni qisqacha konspekt qilish.

Asosiy tushunchalar


Pedagogik texnologiya, pedagogik tizim loyihasi, yangi pedagogik texnologiyalar, ta'lim texnologiyasi, Yangi pedagogik texnologiyalarni hosil qilish elementlari, pedagogik texnologiyalarni loyihalash va tasnif qilish, ta'limni texnologiyalashtirish. Lerner I.Ya, Klarin. M, Choshanov M, Farberman B, Saydaxmetov N.S, M.Ochilovlarning pedagogik texnologiyalarga taaluqli qarashlari, YuNESKO tomonidan yangi pedagogik texnologiyaga berilgan ta'rif.

Kichik guruhlarda ishlash qoidalari

- Har kim o`z o`rtoqlarini tinglashi, hurmat bildirishi kerak.
- Har kim faol, birgalikda, berilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan qaragan holda ishlashi kerak.
- Har kim zarur bo`lgan holda yordam so`rashi lozim.
- Har kim undan yordam so`ralganda albatta yordam berishi kerak.
- Har kim guruh ishi natijasini baholashda ishtirok etishi shart.
- Har kim boshqalarga o`rgatib o`zi o`rganishni bilishi zarur.

O`QUV TOPSHIRIQLAR


1.1.«NIMA UCHUN?» organayzeri mohiyati



“Nima uchun?” chizmasini tuzish qoidalari

2. Aylana yoki to`rtburchak shakllardan foydalanishni o`zingiz tanlaysiz.
3. Chizmaning ko`rinishini – mulohazalar zanjirini to`g`ri chiziqlimi, to`g`ri chiziqli emasligini o`zingiz tanlaysiz.
4. Yo`nalish ko`rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni: dastlabki holatdan izlanishgacha bo`lgan v`onalishuingizni belgilaydi

Nima uchun bugungi kunda texnologiyalarni o'rganishga nisbatan e'tibor kuchaymoqda? ("Nima uchun" organayzeri yordamida to'ldiring)



Ekspert qog'ozlari – topshiriqlar

1-guruh

Ta'lim tizimidagi yangiliklarni tushuntirib bering? (Aniq misollar keltiring).

2-guruh

Pedagogik texnologiyaning dolzarbligi nimada? (Aniq misollar keltiring).


3-guruh

Pedagogik texnologiyaning ahamiyatini ko'rsating? (Aniq misollar keltiring).

4-guruh

Ta'lim texnologiyasi bosqichlari va uning metodikasi haqida gapiring? (Aniq misollar keltiring)

Umumjahon ahamiyatiga molik yangiliklar



Uyda bajarilgan amaliy ish

- Talabalar kutubxonada Pedagogik texnologiyalar bo'yicha yaratilgan barcha adabiyotlar, darslik va o'quv qoll'anmalari, qo'shimcha adabiyotlar, gazeta va jurnal maqolalari, internet materiallari bilan tanishib, adabiyotlar bibliografiyasini tuzishadi.
- Ushbu adabiyotlar asosida pedagogik texnologiya mohiyati yoritilgan muhim joylarni qisqacha konspekt qilishadi.

10-ilova

| Pedagogik texnologiya | O'qitish texnologiyasi | Ta'lim texnologiyasi |
|---|--|--|
| Pedagogik texnologiya - o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya. Texnologiyalarni barcha, boshqa tushunchalarini belgilash uchun, sinonim sifatida - ta'lim texnologiyasi, o'qitish texnologiyasi kabilarni ishlatish mumkin. | O'qitish texnologiyasi - birinchidan, pedagogik texnologiyani jarayonli - harakat aspektini anglatadi. Bu, ta'lim jarayonini o'zgaruvchan sharoitlarda, ajratilgan vaqt davomida istiqbollashtirilgan natijalariga kafolatli erishishga va konkret ta'lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirishni instrumental ta'minlovchi, usul va vositalar (texnologik operatsiyalar)ning tartibli birligini o'zida mujassamlashtirgan ta'lim modelini ishlab chiqish va amalga oshirishning texnologik jarayoni; ikkinchidan, pedagogik texnologiyaning jarayonli-bayonli aspektini ifodalaydi. Bu, maqsadni amalga oshirish va istiqbolda belgilangan natijalarga erishish bo'yicha pedagogik hamda o'quv faoliyatini loyihasini bajarishni bayonidir (texnologik xarita). | Ta'lim texnologiyasi - pedagogik texnologiyaning ilmiy aspektini belgilash uchun ishlatiladi. Bu (fan predmeti), «texnik va inson resurslarini hamda ularni, o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi hamkorligini hisobga olgan holda dars berish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli usuli» |

Test topshiriqlari:**1. Pedagogik texnologiyalar ustivor metodlar bo'yicha qanday tasniflanadi?**

- A) Tabaqalashtirilgan, dunyoviy. B) Tarbiyalovchi, demokratik.
 V) O'yin, o'z-o'zini rivojlantiruvchi ta'lim. G) Javoblarning barchasi to'g'ri.

2. Metodika bilan pedagogik texnologiya tushunchalarini izohi qaysi javobda ko'rsatilgan?

- A) Metodika—o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasi.
 B) Pedagogik texnologiya – pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihalash tashkiliy – pedagogik muolajalar majmuasi.
 V) Pedagogik texnologiya metodikaning tarkibiy qismiga kiradi.
 G) Faqat A va B javoblar to'g'ri.

3. Pedagogik texnologiyalarni qanoatlantiradigan mezonlar nimalardan iborat?

- A) Izchillik; B) Boshqaruvga asoslanganlik;
 V) Samaradorlik; G) Javoblarning barchasi to'g'ri.

4. Innovatsiya iborasiga qaysi qatorda to'g'ri ta'rif berilgan?

- A) Yangilik kiritish; B) Tadqiqot qilish;
 V) Tashkiliy jarayon; G) Ishlab chiqarish.

5. An'anaviy ta'limda o'quvchining bosh vazifasi nimalardan iborat?

- A) Axborotni qabul qilish, yordam, axborotni qayta ishlamagan holda javob berish;
 B) O'quv topshiriqlarini va muammoli hal etishda ishtirok etish, doimo o'z bilimini boyitish, kerakli bahoni ko'tish;
 V) O'z bilimini mustahkamlash maqsadida sidqidildan mehnat qilish, o'z iqtidorini namoyon etish, ijodiy izlanish;
 G) O'zini va boshqalarini hurmat qilish, hamkorlikda ishlash, kitobxonlik bilan shug'ullanish.

6. Pedagogika fanida yana qanday yangilik turlariga qiziqish uyg'onganini aniqlang?

- A) Xususiy yangilik; B) Shartli, mahalliy yangilik;
 V) Sub'ektiv yangilik; G) Hama javoblar to'g'ri.

7. «Ilgor pedagogik texnologiyalar va tajribalarni aniqlash hamda ommalashtirish chora tadbirlari to'g'risida» gi qaror qachon qabul qilingan?

A. O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi hay'at majlisining 1998 yil 19 dekabrda qarorida

B. O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi hay'at majlisining 1997 yil 17 dekabrda qarorida

S. O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi hay'at majlisining 1995 yil 21 dekabrda qarorida

D.O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi hay'at majlisining 1997 yil 19 yanvardagi qarorida

8. Yangi pedagogik texnologiyalarning asosi nima bo'lib hisoblanadi?

- A. davlat ta'lim standartlari bo'lib hisoblanadi
- B. o'quv dasturlari bo'lib hisoblanadi
- S. ta'lim-tarbiya mazmuni bulib hisoblanadi
- D. o'qitish usuli bo'lib hisoblanadi

9. "Texnologiya" tushunchasi qachon fanga kirib kelgan?

- A. Texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872 yil kirib kelgan.
- B. Fan taraqqiyoti bilag bog'liq holda fanga 1900 yil kirib kelgan.
- S. Ilmiy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1930 yil kirib kelgan.
- D. Texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1970 yil kirib kelgan.

17. "Texnologiya" tushunchasi qanday ma'noni bildiradi?

- A. Texnos so'zidan olinib, taraqqiyot ma'nosini anglatadi.
- B. Texnos- san'at, hunar va logos- fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topib, "hunar fani" ma'nosini anglatadi.
- S. Texnikos so'zidan olinib, texnikaviy yuksalish ma'nosini bildiradi.
- D. "Texnologiya" tushunchasi ta'lim-tarbiya ma'nosini anglatadi.

11. Texnologik xarita nima?

- A. Ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarini ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjat.
- B. Ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayoni
- S. Ishchi tomonidan o'zining ish joyida bajariladigan, yakuniga yetkazilgan harakat ko'rinishidagi jarayon.
- D. Texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib.

12. «...pedagogik texnologiya - amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan pedagogik tizimning loyihasidir», «Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvoffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir»- bu kimning pedagogik texnologiyaga bergan ta'rifi

- A. N.Sayidaxmedov ta'rifi
- B. M.Ochilov ta'rifi
- S. B. Farberman ta'rifi
- D. V.Bespalko ta'rifi

13. «Pedagogik texnologiya - ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning ta'sirini inobatga olib, o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo'llashning tizimli metodidir»- bu kimning pedagogik texnologiyaga bergan ta'rifi

- A. B.Farberman ta'rifi
- B. M.Ochilov ta'rifi
- S. T.S.Nazarova ta'rifi
- D. YuNESKO tashkiloti ma'qullagan ta'rif

14. «Pedagogik texnologiya- avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir», «PT- o'quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining sub`ektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi»,- bu kimning pedagogik texnologiya haqidagi fikri

A. V.M.Monaxov fikri

B.M.Ochilov fikri

S. T.S.Nazarova fikri

D. YuNESKO tashkiloti ma'qullagan ta'rif

15. «Pedagogik texnologiya- bu o'qituvchi (tarbiyachi) tomonidan o'qitish (tarbiya vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir»- bu kimning pedagogik texnologiyaga bergan ta'rifi

A. N.Sayidaxmedov ta'rifi

B.M.Ochilov ta'rifi

S.V.Bespalko ta'rifi

D. T.S.Nazarova ta'rifi

16. «Pedagogik texnologiya- tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta'lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va ob`ektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro ta'sirini inobatga olib, ta'lim maqsadlarini oydinlashtirib, o'qitish va bilim o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmuidir»- bu kimning pedagogik texnologiyaga bergan ta'rifi

A. N.Sayidaxmedov ta'rifi

B. M.Ochilov ta'rifi

S. V.Bespalko ta'rifi

D. T.S.Nazarova ta'rifi

II. MA'LUMOT-AXBOROT MATERIALLAR

12- ilova

Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

| Guruhlar | Savolning to'liq va aniq yoritilishi 0,2 ball | Misollar bilan muammoga yechim topishi 0,2 ball | Guruh a'zolarining faolligi 0,1 ball | Jami ball 0,5 |
|-----------------|--|--|---|--------------------------|
| 1 | | | | |
| 2 | | | | |
| 3 | | | | |
| 4 | | | | |

Amaliy mashg'ulotni tahlil qilish varag'i

| Tahlil bosqichi nomi | Tahlil bosqichi mazmuni | Tahlil natijasi | Baholash ko'rsatkichlari va mezon | |
|--|--|-----------------|-----------------------------------|-------|
| | | | ko'rsatkichi | mezon |
| 1. Savollarga javob berish. | Guruhlarga berilgan ekspert savollarga javob berish. | | Aniq va lo'nda | 0,5 |
| 2. "Nima uchun" organeyzerini to'ldish | "Nima uchun" organeyzerini to'ldish | | To'g'ri va aniq | 0,6 |
| 3. Uyda tayyorlangan amaliy | Bibliografiya va qisqacha konspekt | | Tartibli, to'liq | 1,5 |
| 4. Test yechgani uchun | Testlarga javob berish | | To'g'ri javobni belgilash | 0,4 |

III. O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN MATERIALLAR

3.1. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da pedagogik va axborot texnologiyalarni rivojlantirish masalalari» mavzusida esse yozib kelish.

ESSE

Esse – taklif etilgan mavzuga 1000 dan 5000 gacha so'z hajmidagi insho.

Esse – bu muallifning ta'kidlab o'tadigan individual pozitsiyasidagi erkin ifoda etish shakli; qandaydir predmet bo'yicha umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni o'z ichiga oladi.

Besh daqiqalik esse

Besh daqiqali esse – o'rganilayotgan mavzu bo'yicha olingan bilimlarni umumlashtirish, mushohada qilish maqsadida o'quv mashg'uloti oxirida 5 daqiqa oralig'ida olib boriladi.

O'qituvchi taklif etishi mumkin:

- «Men bu ... haqida nimani o'ylayman» yoki «Nima uchun, mening fikrimga ko'ra ...» savollariga javob bering;

- o`quv mashg`ulotida berilgan talabalar uchun yangi sanalgan g`oyani tavsiflash va sharhlab berish;

- olingan bilim, ko`nikmalar qacda amaliyotda qo`llanilishini tavsiflash.

Ushbu ko`rinishdagi esse baholanmasligi ham mumkin. Ammo, o`qituvchi juftliklarga ajralish, ishlar bilan o`zaro almashish va yozilganlarni muhokama qilish taklifini berishi mumkin. Ushbu holda o`qituvchi 2-3 ta essenini tanlab tekshirishi mumkin, ularni ovozini chiqargan holda sharhlashi, talabalar bilan muhokama qilishi va xulosa qilishi mumkin.

Asoslangan esse

Asoslangan esse - qo`yilgan savolga asosli javob keltirilgan yozma ishdur. Muallif ma'lum bir pozitsiyani egallaydi va uni himoya qiladi, bunda o`zining pozitsiyasini qo`llab-quvvatlash uchun bir qancha asoslangan isbotlarni keltiradi. Maqsad – muallif lozim topadigan qarashlarni boshqalarning ham qabul qilishiga ishontirish.

Asoslangan samarali essenini yozish yengil bo`ladi, qachonki siz kitobxonlarga o`zingizning esseingizni yozish jarayonida uni fikriy jihatdan taqdim etsangiz va ular bilan fikriy muloqotni o`rnata olsangiz.

Asoslangan esse tarkibi

(1) Savol bo`yicha nisbatan muallif nuqtai nazarining bayon etilishi (1xat boshi)

(2) Bayon etilgan pozitsiyani asoslash – ushbu pozitsiyani qo`llab-quvvatlashni muallifning ishonarli dalillari, ushbu pozitsiyani qabul qilishga ishontirish.

(3) Xulosa- rezyume

Asoslangan essenini baholash ko`rsatkichlari va mezonlari

- mavzu mazmuniga mos kelishi;
- mazmuni, fikri;
- unga taaluqli muammoni oldindan ko`ra bilish, shaxsiy nuqtai nazari, ma'lumotlar etarliligi;
- uslub: ifoda aniqligi, muayyanligi;
- orfografiya

TAKLIF VA MULOHAZALAR

**“Pedagogik texnologiya konsepsiyasining rivojlanish tarixi” mavzusidagi
2 -laboratoriya mashg`ulotining ta'lim texnologiyasi modeli**

| | |
|--|---|
| <i>Mashg`ulotga ajratilgan vaqt – 2 soat</i> | Talabalar soni- 20-25 |
| <i>Mashg`ulot mavzusi</i> | PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA KONSEPSIYASINING RIVOJLANISH TARIXI |
| <i>O`quv mashg`ulotining shakli</i> | Laborotoriya |
| <p style="text-align: center;">Mashg`ulot rejasi:</p> <p style="text-align: center;">Nazariy savollar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. XX asr boshlarida «pedagogik texnologiya» tushunchasining vujudga kelishi. 2. Rivojlangan xorijiy davlatlarda Pedagogik texnologiya markazlarining tashkil etilishi <p style="text-align: center;">Amaliy ish</p> <ol style="list-style-type: none"> a) Ta'lim va tarbiya jarayonida o`qitishning texnik vositalari va pedagogik texnologiyalarning qo`llanilishini kuzatish va tahlil qilish b) Rivojlangan xorijiy davlatlardan birining ta'lim tizimini o`rganish, tahlil qilish | |
| <i>Mashg`ulotning maqsadi:</i> | <p>Talabalarga pedagogik texnologiya tushunchasining vujudga kelishi, XX asr boshlarida «pedagogik texnologiya»larga munosabat, uning hozirgi kundagi taraqqiyoti va ahamiyati haqida ma'lumot berish. Rivojlangan xorijiy davlatlarda Pedagogik texnologiya markazlarining tashkil etilishi bilan tanishtirish.</p> <p>O`qitishning texnik vositalari va pedagogik texnologiyalarning amalda qo`llanilishini kuzatish va tahlil qilishga o`rganish, rivojlangan xorijiy davlatlar ta'lim tizimi va mazmuni haqida bilimga ega bo`lish.</p> |
| <p style="text-align: center;">Talabaning o`quv faoliyati natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • «Pedagogik texnologiya», «pedagogik texnika», texnik vositalar kabi terminlarning mazmunini tushuntirib beradilar; • O`quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda qurishni pedagogik texnologiya yo`nalishi sifatida tahlil etadilar; | |

- XX asr boshlarida «pedagogik texnologiya» tushunchasining vujudga kelishi haqida gapirib beradilar;
- XX asrning 30- yillarda «pedagogik texnika» tushunchasining talqinini va 40- yillarda texnik vositalarning yaratilishi va o`qitish jarayonida qo`llanilishi masalasini yoritib beradilar;
- XX asrning 60-70 yillarida «pedagogik texnologiya»ga bo`lgan munosabatni yoritadilar;
- AQSh va G`arb davlatlarida (Angliya, Italiya, Germaniya, Fransiya, Vengriya) yirik Pedagogik texnologiya Markazlarining tashkil etilishi, 1967 yilda sobiq SSSRda «O`quv jixozlari va o`qitishning texnik vositalari» ilmiy-tadqiqot institutining barpo bo`lishi to`g`risida o`z fikrlarini erkin bayon etadilar.
- O`qitishning texnik vositalari va pedagogik texnologiyalarning amalda qo`llanilishini kuzatishlari natijalarini bayon etishadi.
- Rivojlangan xorijiy davlatlar ta`lim tizimi va mazmuni haqidagi bilimlar umumlashtiriladi.
-

Mustaqil o`rganish uchun topshiriqlar:

1. Ta`lim va tarbiya jarayonida o`qitishning texnik vositalari va pedagogik texnologiyalarning qo`llanilishini kuzatish va tahlil qilish. Xorijiy davlatlar ta`lim tizimini o`rganish.

Eslatma: Har bir talaba bittadan dars yoki tarbiyaviy tadbirni kuzatib, qitishning texnik vositalaridan foydalanish va pedagogik texnologiyalarning qo`llanilishini yozma holatda tahlilini taqdim etadi.

2. “Yumoloq stol atrofida muhokama” tartibi bilan tanishib chiqing.

Eslatma: 2.1, 2.2, 2.3., 2.4.-ga qarang.

3. O`quv topshiriqlarni bajarishga tayyorlaning, Blitz-savol-javoblarda ishtirok eting.

Eslatma: 1.1, 1,2-ga qarang.

5. O`z-o`zini nazorat qilish uchun materiallar. 3.1.3.2. Mavzu bo`yicha suhbat va bahs munozaraga tayyorlaning.

| | | | |
|--|---|--|--|
| Didaktik vositalar | Ko`rg`zmalar, slaydlar, maxsus texnik vositalar | | |
| Nazorat shakli: Og`zaki nazorat, savol-javob va laboratoriyaning yozma varianti. | Maksimal ball:3 b Talabaga qo`yilgan ball: | O`qituvchi imzosi: _____ — — | |

2- Laborotoriya mashg'ulotining texnologik xaritasi

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|--|---|
| | O'qituvchi | Talaba, guruh |
| 1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (15 minut) | 1.1. Talabalarni mavzuning nomlanishi, maqsadi va asosiy tushunchalar bilan tanishtiradi (1-ilova) | Tinglaydilar. |
| | 1.2. Mavzu rejasidagi masalalarni taqdim etadi (2-ilova). | Rejadagi masalalar bilan tanishadilar |
| | 1.3. Blitz-savol-javoblarda ishtirok etishni taklif etadi. (1.1, 1.2). | Blitz-savol-javoblarda ishtirok etishadi. |
| 2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (45 minut) | 2.1. "Yumaloq stol atrofida" muhokamani o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi (2.1). | "Yumaloq stol atrofida" muhokamani o'tkazish tartibi bilan tanishadilar |
| | 2.2. "Yumaloq stol atrofida" muhokamani o'tkazish savollarini e'lon qiladi (2.2) | "Yumaloq stol atrofida" muhokamada ishtirok etishadi |
| | 2.3. Pedagogik davrlar haqida gapirishni so'raydi(2.3) | Talabalar pedagogik davrlar haqida gapirib berishadi |
| | 2.4. Rivojlangan xorijiy davlatlarda Pedagogik texnologiya markazlarining tashkil etilishi haqida so'raydi (2.4,2.5,2.6) | Rivojlangan xorijiy davlatlarda Pedagogik texnologiya markazlarining tashkil etilishi haqida gapirishadi (2.4. asosida) |
| 3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (20 minut) | 3.1. Talabalardan testga javob berishlarini soraydi (3.1) | Testga javob berishadi |
| | 3.2. Insert usulidan foydalangan holda berilgan matnni o'qishni topshiradi | Insert usulidan foydalangan holda berilgan matnni o'qishadi |
| | 3.3. "Klaster" tuzish qoidalarini eslatib, xorijiy davlatlarda ta'lim tizimiga oid klaster tuzishni topshiradi | "Klaster" tuzishadi |

MAVZU

**PEDAGOGIK
TEKNOLOGIYA
KONSEPSIYASININ
G RIVOJLANISH
TARIXI**

ASOSIY TUSHUNCHALAR

XX asr boshlarida «pedagogik texnologiya» tushunchasining vujudga kelishi. 30- yillarda «pedagogik texnika» tushunchasining talqini. 40- yillarda texnik vositalarning yaratilishi va o`qitish jarayonida qo`llanilishi. O`quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda qurish pedagogik texnologiya yo`nalishi sifatida. 60- yillarda AQSh da «pedagogik texnologiya» jurnalining paydo bo`lishi. G`arb davlatlarida (Angliya, Italiya, Germaniya, Fransiya, Vengriya) yirik Pedagogik texnologiya Markazlarining tashkil etilishi. 1967 yilda sobiq SSSRda «O`quv jixozlari va o`qitishning texnik vositalari» ilmiy-tadqiqot institutining barpo bo`lishi. Yaponiya pedagogik texnologiya Milliy kengash faoliyati. 70- yillarda AQShda «Kommunikatsiya va texnologiya» Assotsiatsiyasining tashkil etilishi va faoliyati to`g`risida.

ASOSIY TUSHUNCHALAR

XX asr boshlarida «pedagogik texnologiya» tushunchasining vujudga kelishi. 30- yillarda «pedagogik texnika» tushunchasining talqini. 40- yillarda texnik vositalarning yaratilishi va o`qitish jarayonida qo`llanilishi. O`quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda qurish pedagogik texnologiya yo`nalishi sifatida. 60- yillarda AQSh da «pedagogik texnologiya» jurnalining paydo bo`lishi. G`arb davlatlarida (Angliya, Italiya, Germaniya, Fransiya, Vengriya) yirik Pedagogik texnologiya Markazlarining tashkil etilishi. 1967 yilda sobiq SSSRda «O`quv jixozlari va o`qitishning texnik vositalari» ilmiy-tadqiqot institutining barpo bo`lishi. Yaponiya pedagogik texnologiya Milliy kengash faoliyati. 70- yillarda AQShda «Kommunikatsiya va texnologiya» Assotsiatsiyasining tashkil etilishi va faoliyati to`g`risida.

I. O'QUV TOPSHIRIQLAR

1.1 Blits-so'rov savollari

Blits-so'rov savollari

| № | Savol | Javob |
|---|--|-------|
| 1 | “Texnologiya” soʻzining maʼnosi | |
| 2 | Texnologiya tushunchasi qachon paydo boʻldi? | |
| 3 | Texnologik jarayon nima? | |
| 4 | Pedagogik texnologiyaga taʼrif bering. | |
| 5 | XIX asrning oxiri XX asr boshlaridagi qanday ilgʻor pedagogic oqimlarni bilasiz? | |
| 6 | XX asrning 30-40 yillarida pedagogik texnologiyaga munosabat? | |
| 7 | XX asrning 60-70 yillarida pedagogik texnologiyaga munosabatda qanday oʻzgarishlar yuzaga keldi? | |

1.2.Oʻqitishning texnik vositalari va pedagogik texnologiyalarning amalda qoʻllanilishini kuzatish boʻyicha tahlillar baholanadi.

II. MA'LUMOT-AXBOROT MATERIALLAR

2.1 “Yumaloq stol atrofida” muhokamani oʻtkazish tartibi.


1. Suhbatdoshing fikrini eʼtiborni boʻlmasdan eshit.
2. Suhbatdoshing fikriga qoʻshilsang, undan oʻz fikringni bayon qilish uchun ruxsat soʻra.
3. Agar suhbatdoshing fikriga qoʻshilsang, koʻrilayotgan savolga qoʻshimcha va toʻldirish uchun undan fikr soʻra.

2.2. «Yumaloq stol atrofida» muhokama qilish uchun savollar


1. «Pedagogik texnologiya», «pedagogik texnika», texnik vositalar kabi terminlarning mazmunini tushuntirib bering.
2. XX asr boshlarida «pedagogik texnologiya» tushunchasining vujudga kelishi haqida gapirib bering.

3. XX asrning 30- yillarda «pedagogik texnika» tushunchasining talqinini va 40- yillarda texnik vositalarning o`qitish jarayonida qo`llanilishi.
4. XX asrning 60-70 yillarida «pedagogik texnologiya»ga bo`lgan munosabatni yoriting.
5. AQShda qachon Pedagogik texnologiya Markazlari va jurnallar tasning tashkil etilishi, 1967 yilda sobiq SSSRda «O`quv jixozlari va o`qitishning texnik vositalari» ilmiy-tadqiqot institutining barpo bo`lishi to`g`risida o`z fikrlarini erkin bayon etadilar.
6. G`arb davlatlarida (Angliya, Italiya. Germaniya, Fransiya, Vengriya) yirik Pedagogik texnologiya Markazlari qachon va qanday maqsadlarda tashkil etildi
7. 1967 yilda sobiq SSSRda «O`quv jixozlari va o`qitishning texnik vositalari» ITI tashkil etilishi
8. Pedagogik texnologiyaga berilgan ta'riflarni umumlashtirib, izohlang?
9. Ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalarning tutgan o`rnini ko`rsating?

2.3. Pedagogik davrlar

- 
1. Individual pedagog, qo`l bilan ishlaydigan pedagogning pedagogik faoliyati davri (qadimgi davrlardan boshlab XVII asrgacha);
 2. O`quv kitobi davri (XVII asrdan hozirgi davrgacha);
 3. Audiovizual vositalar davri (XX asrning 50-yillari).
 4. O`qitishni boshqarishni avtomatlashtirish oddiy vositalari davri (XX asrning 70-yillari).
 5. Zamonaviy hisoblash mashinalari asosida ta'limni boshqarishni avtomatlashtirishda adaptiv vositalar davri (XX asr oxiri kompyuterli o`qitish).

2.4. Texnologiya tushunchasi



“Texnologiya” tushunchasi texnik taraqqiyot sababli yuzaga keldi va lug`atlar talqini bo`yicha (techne san'at, hunar, fan; logos – tushuncha, ta'limot) materiallarga ishlov berish usullari va vositalari haqidagi bilimlar to`plami demakdir

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik texnologiyalar markazlari

- AQSh 1971 yil – “Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar bo`yicha AQSh Assotsiatsiyasi”. Hozirgi kunda mamlakat bo`ylab va Kanadada bu kengashning 50 ta filiallari ish olib bormoqda. AQSh da 1961 yilda “Pedagogik texnologiya” jurnali (Educational Technology), 1971 yilda esa – “Audiovizual o`qitish” jurnali nashr etila boshlandi.
- Angliya 1967 yil - Pedagogik texnologiya bo`yicha Milliy kengash 1964 yildan boshlab “Pedagogik texnologiya va o`qitishni dasturlashtiri” (Educational Technology progratted tearning) jurnalini, 1971 yilda – “Pedagogik texnologiya” jurnalini nashr eta boshladi.

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik texnologiyalar markazlari

- Yaponiya - Pedagogik texnologiyalar muammolari bilan 4 ta ilmiy tashkilotlar shug`ullanadi. 1967 yilda “Pedagogik texnologiyalar bo`yicha Milliy kengash” tashkil etildi, uning filiallari 22 ta davlat universitetlarida joylashtirilgan. 1965 yildan boshlab Yapon tilida har uch oyda “Pedagogik texnologiya” jurnal iva ingliz tilida yiliga ikki marta “Pedagogik texnologiyalar sohasida tadqiqotlar” jurnali nashr etiladi. Yaqinda “Pedagogik texnologiyalar bo`yicha umumiyapon Markaziy kengashi” tashkil etildi, u muammolar bo`yicha xalqaro aloqalar o`rnatish bilan ham shug`ullanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik texnologiyalar markazlari

- Italiya – 1971 yili pedagogik texnologiyalar bo`yicha Milliy markaz tashkil etildi va “Pedagogik texnologiyalar” jurnali nashr etiladi.
- Vengriya - 1973 yili o`qitish texnologiyasi Davlat Markazi tashkil etildi.
- Sobiq SSSR – 1965 yili SSSR PFA qoshida maktab ta'limi va o`qitish texnik vositalari ITI (NII) tashkil etildi.

III. O`Z-O`ZINI NAZORAT QILISH UCHUN MATERIALLAR

3.1.Topshiriq. Insert usulidan foydalangan holda berilgan matnni o`qib chiqing.

Insert usuli

| «V» | « - » | « + » | « ? » |
|---|--|--|---|
| «ha» - o`qiganlarin gizdan aniq bilgan yoki bilaman deb o`ylagan ma`lumot | «manfiy» - o`qiganlarin giz, bilganlaring izga qarama-qarashi ma`lumot | «musbat» - o`qiganlari ngiz orasida siz uchun yangi bo`lgan ma`lumot | «savol» - o`qiganlari- ngizdan siz uchun tushunar-li bo`lmagan yoki shu haqda ko`proq narsa bilishni istagan ma`lumot |

3.2.Testlarni yeching

1. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida xorijiy mamalakatlarda vujudga kelgan «Yangi maktablar» degan pedagogik oqimning asoschisi kim edi?

- A. fransuz pedagogi E.Demolen
- B. rus pedagogi K.D.Ushinskiy
- S. nemis pedagogi Vilgelm Avgust Lay
- D. AQSh pedagogi Eduard Torndayk

2. XIX asr oxirlarida «ish-harakat pedagogikasi»ga kim asos solgan.

- A. fransuz pedagogi E.Demolen
- B. rus pedagogi K.D.Ushinskiy
- S. nemis pedagogi Vilgelm Avgust Lay
- D. AQSh pedagogi Eduard Torndayk

3. XIX asr oxirlarida paydo bo`lgan Eksperimental pedagogikaning yirik namoyondalari kimlar?

- A. fransuz pedagogi E.Demolen va nemis pedagogi Ernst Meyman
- B. rus pedagogi K.D.Ushinskiy va AQSh pedagogi Eduard Torndayk
- S. nemis pedagogi Vilgelm Avgust Lay va AQSh pedagogi Eduard Torndayk
- D. nemis pedagogi Ernst Meyman va AQSh pedagogi Eduard Torndayk

4. XX asrning 40-50 yillarida nima pedagogik texnologiyaga tenglashtirildi?

- A. o`quv jarayoniga texnik vositalar (radio, kino) ning joriy etilishi

- B. o'quv jarayonida ko'rgazmali qurollardan foydalanish
- S. o'quv jarayonida interfaol usullardan foydalanish
- D. Bu davrda pedagogik texnologiya haqida gap bo'lmagan

5. Qachondan pedagogik texnologiyaga «o'quv jarayoni texnologiyasi» sifatida qarash boshlandi?

- A. XX asrning 20-yillaridan
- B. XX asrning 30-40 –yillaridan
- S. XX asrning 60-70-yillaridan
- D. XX asrning 90-yillaridan

6. AQShda Kommunikatsiya va texnologiya Assotsiyasi qachon tashkil topdi?

- A. 1971 yil
- B. 1969 yil
- S. 1961 yil
- D. 1980 yil

7. Angliyada Pedagogik texnologiya milliy kengashi qachon tashkil topdi?

- A. 1971 yil
- B. 1967 yil
- S. 1961 yil
- D. 1980 yil

8. Italiyada 1 Pedagogik texnologiya milliy markazi qachon tashkil etildi?

- A. 1971 yil
- B. 1967 yil
- S. 1961 yil
- D. 1980 yil

3.3.

Klaster tuzish ketma–ketligi:

- Katta varog' qog'ozning o'rtasiga yoki sinf doskasiga yoxud yozish uchun foydalanish mumkin bo'lgan sathga «kalit» so'z yoki gap yoziladi;
- Shu mavzuga tegishli deb hisoblangan va xayolga kelgan so'z va gaplar yoziladi;
- Fikrlar paydo bo'lganda va ularni yozganda fikrlar o'rtasida mumkin bo'lgan bog'lanishlarni belgilash;
- Fikrlar tugamaguncha yoki vaqt tamom bo'lgunicha xayolga kelgan barcha fikrlar yozilaveradi;
- Keltirilgan so'z va fikrlar mazmuni va yaqinligiga qarab toifalarga ajratib chiqiladi.

TAKLIF VA MULOHAZALAR

**“Ta`limni didaktik loyihalash” mavzusidagi
3-laboratoriya mashg`ulotining ta'lim texnologiyasi modeli**

| | |
|---|---|
| <i>Mashg`ulotga ajratilgan vaqt – 2 soat</i> | Talabalar soni- 20-25 |
| <i>Mashg`ulot mavzusi</i> | TA`LIMNI DIDAKTIK LOYIHALASH |
| <i>O`quv mashg`ulotining shakli</i> | Laborotoriya |
| <p style="text-align: center;">Mashg`ulot rejasi:</p> <p style="text-align: center;">Nazariy savollar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ta`lim-tarbiyaga turli yondashuvlar. 2. Ta`limni didaktik loyihalash muammolari 3. O`quv maqsadlari va vazifalarini loyihalash. <p style="text-align: center;">Amaliy ish</p> <ol style="list-style-type: none"> a) Mutaxassislikka oid biror mavzu bo`yicha o`quv maqsadlari va vazifalarini loyihalash. b) Testlarning turli shakllariga oid test topshiriqlari tuzib kelish. | |
| <i>Mashg`ulotning maqsadi:</i> | <p>-Ta`limiy- talabalarni ta`lim-tarbiyaga turli- an'anaviy va noan'anaviy yondashuvlar bilan tanishtirish, didaktik loyihalash haqida bilim va ko`nikmaga ega bo`lishlari, o`quv maqsadlari va vazifalarini loyihalashni o`rganishlariga erishish. Mutaxassisliklariga oid biror mavzu bo`yicha o`quv maqsadlari va vazifalarini loyihalashni, testlarning turli shakllariga oid test topshiriqlari tuzishni o`rganish</p> <p>- Tarbiyaviy- talabada ijodkorlik, ilmga intilish, o`z ustida ishlash kabi fazilatlarni tarbiyalash, innovatsion faoliyatga tayyorlab borish.</p> <p>- Rivojlantiruvchi- talabada ta`limni didaktik loyihalashni o`rganib, o`z mutaxassialik fanlarida qo`llab borish uchun zamin tayyorlash.</p> |
| Talabaning o`quv faoliyati natijalari: | |

- Ta'lim-tarbiyaga turli yondashuvlarni sanab beradi.
- An'anaviy yondashuv mohiyatini yoritib beradi.
- Tizimli va texnologik yondashuvlarni tahlil etadi.
- Ijodiy va tadqiqiy yondashuv mohiyatni bayon etadi.
- Ta'lim-tarbiyaga an'anaviy va noan'anaviy yondashuvlarni taqqoslab ularning avzallik va kamchiliklarini ko'rsatadi.
- Tizimli va texnologik yondashuvlarni tahlil etadi.
- Ta'limni didaktik loyihalash haqida gapirib beradi.
- Fan va o'quv predmeti farqlarini aniq ko'rsatib bera oladilar.
- «Ma'lumot mazmuni va ta'lim mazmuni tushunchalarini solishtiradi.
- O'quv maqsadlari va vazifalarini loyihalashni tushunib oladilar.
- O'z mutaxassisligiga oid biror mavzu bo'yicha o'quv maqsadlari va vazifalarini loyihalashni mashq qilishadi.
- Blum taksonomiyasini qo'llab, umumiy o'quv maqsadlarini shakllantiradilar.
- Testlarning turli shakllariga oid test topshiriqlari tuzishga o'rganadilar, ularga misollar keltirishadi.

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar:

1. Mutaxassislikka oid biror mavzu bo'yicha o'quv maqsadlari va vazifalarini loyihalang.

Eslatma: Har bir talaba bittadan dars uchun o'quv maqsadlari va vazifalarini belgilaydi. 2.4.-ga qarang

2. Testlarning turli shakllariga oid test topshiriqlari tuzish

Eslatma: Ochiq, yopiq, muvofiqlikni aniqlashga va izchillikni belgilashga doir testlarga kamida 5 tadan misol keltiradi. 2.5

3. O'quv topshiriqlarni bajarishga tayyorlaning, Blitz-savol-javoblarda ishtirok eting.

Eslatma: 1.1, 1.2, 1.3, 1.4, 1.5, 1.6-ga qarang.

Mavzu bo'yicha munozaraga tayyorlaning.

| | | |
|---|---|---|
| Didaktik vositalar | | Ko'rg'zmalar, slaydlar, maxsus texnik vositalar |
| Nazorat shakli: Og'zaki nazorat, savol-javob va laboratoriyaning yozma varianti. | Maksimal ball: 3 b. Talabaga qo'yilgan ball: _____ | O'qituvchi imzosi: _____ |

3- Laborotoriya mashg`ulotining texnologik xaritasi

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|--|--|---|
| | O`qituvchi | Talaba, guruh |
| 1-bosqich. O`quv mashg`ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (10 minut) | 1.1. Talabalarni mavzuning nomlanishi, maqsadi va asosiy tushunchalar bilan tanishtiradi (1-ilova) | Tinglaydilar. |
| | 1.2. Mavzu rejasidagi masalalarni taqdim etadi (2-ilova). | Rejadagi masalalar bilan tanishadilar |
| | 1.3. Talabalarni ikki guruhga bo`linishni taklif etadi. Kichik guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishtiradi (2.1). | Ikki guruhga bo`linishadi. Guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishadilar |
| 2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (45 minut) | 2.1. Guruhlarga bajarish uchun topshiriqlarni e'lon qiladi (1.1, 1.2, 1.3, 1.4, 1.5) Klaster qoidasi (2.2,2.3.) | Topshirlarni bajaradilar. Klaster tuzadilar |
| | 2.2. Guruhlarga Blitz savollarga javob berishni taklif etadi (1.6.) | Blitz savollarga javob berishadi |
| | 2.3. Talabalar uyda tayyorlab kelgan 1-mavzu uchun o`quv maqsadlarini loyihasini taqdim etishni so`raydi. Bunga namuna ko`rsatadi (2.4.) | Talabalar uyda tayyorlab kelgan o`quv maqsadlarini loyihasini taqdim etishadi |
| | 2.4. Guruhlarga o`zlari tuzib kelgan testlarni taqdim etishlarni so`raydi. (2.5) | Tuzib kelgan testlarni taqdim etishadi |
| 3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (25 minut) | 3.1. Har bir guruhga noan'anaviy shakldagi dars ishlanmasi tayyorlashlarini taklif etadi | Noan'anaviy shakldagi dars ishlanmalarni taqdim etishadi |
| | 3.2. Test savollariga javoblar berishni taklif qiladi (3.2.) | Test savollariga javoblar berishnadi |
| | 3.3. Amaliy mashg`ulotni baholash mezonlari va ko`rsatkichlarini, guruhlar to`plagan ballarni e'lon qiladi (2.6) | Guruhlarning javoblariga berilgan bahoni eshitishadi |
| | 3.4. "An'anaviy va noan'anaviy ta'lim tizimi tahlili" mavzu bo'yicha munozaraga tayyorlanishni topshiradi (3.2.) | Munozaraga tayyorlanishadi |

Mavzu

TA`LIMNI DIDAKTIK LOYIHALASH

REJA

Nazariy savollar

1. Ta`lim-tarbiyaga turli yondashuvlar.
2. Ta`limni didaktik loyihalash muammolari
3. O`quv maqsadlari va vazifalarini loyihalash.

Amaliy ish

- a) Mutaxassislikka oid biror mavzu bo`yicha o`quv maqsadlari va vazifalarini loyihalash.
- b) Testlarning turli shakllariga oid test topshiriqlari tuzib kelish.

ASOSIY TUSHUNCHALAR

- Loyiha, ta`limni didaktik loyihalash muammolari, ta`lim sub`ektlari, fan va o`quv predmeti, ijtimoiy tajriba- didaktik loyiha manbai, ta`lim mazmuni va ma`lumot mazmuni, ijtimoiy tajribaning tarkibiy qismlari, ta`limni didaktik loyihalash koncepciyasi, o`quv material va uning turli shakllarini loyihalash, fanni o`qitishning umumiy maqsadi, bo`limning o`quv maqsadi, xususiy o`quv maqsadi, o`quv maqsadlari va vazifalarini loyihalash, Blum taksonomiyasi, o`quv maqsadlariga mos fe`llar.

I. O`QUV TOPSHIRIQLAR

1.1. topshiriq. Ta'lim-tarbiyaga an'anaviy yondashuv xususiyatlarini sanab bering

Ta'lim-tarbiyaga an'anaviy yondashuv xususiyatlari


1.2. topshiriq. Ta'lim-tarbiyaga noan'anaviy yondashuv xususiyatlarini ko'rsating

Ta'lim-tarbiyaga noan'anaviy yondashuv xususiyatlari

1.3. topshiriq. Klaster texnikasi asosida ta'lim-tarbiyaga turli yondashuvlarni tahlil qiling.

1.4. topshiriq. "Ta'lim-tarbiyaga turli yondashuv"larni ni Klaster texnikasidan foydalanib chizing.

1.5



1.6. Blitz-so'rov savollari

| <i>№</i> | <i>Savol</i> | <i>Javob</i> |
|----------|---|--------------|
| 1 | Ta'lim-tarbiyaga qanday yondashuvlar mavjud? | |
| 2 | An'anaviy yondashuvning asosiy xususiyati nimada? | |
| 3 | Tizimli yondashuv mohiyati nima? | |
| 4 | Texnologik yondashuvning ahamiyati nimada? | |
| 5 | Ta'lim-tarbiyaga an'anaviy yondashuvning avzallik va kamchiliklarini ko'rsating | |
| 6 | Ta'lim-tarbiyaga noan'anaviy yondashuvning avzallik va kamchiliklarini ko'rsating | |
| 7 | Ta'limni didaktik loyihalash turlari qaysilar? | |
| 8 | Fan va o'quv predmeti farqlarini ko'rsating | |
| 9 | «Ma'lumot mazmuni va ta'lim mazmuni tushunchalarini solishting | |
| 10 | Blum taksonomiyasi nima, qayerda ishlatiladi? | |

2. MA'LUMOT-AXBOROT MATERIALLAR

2.1.

Kichik guruhlarda ishlash qoidalari

- ▶ Har kim o'z o'rtoqlarini tinglashi, hurmat bildirishi kerak.
- ▶ Har kim faol, birgalikda, berilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan qaragan holda ishlashi kerak.
- ▶ Har kim zarur bo'lgan holda yordam so'rashi lozim.
- ▶ Har kim undan yordam so'ralganda albatta yordam berishi kerak.
- ▶ Har kim guruh ishi natijasini baholashda ishtirok etishi shart.
- ▶ Har kim boshqalarga o'rgatib o'zi o'rganishni bilishi zarur.

2.2. Klaster texnikasi bilan ishlash qoidalari

Klaster tuzish ketma-ketligi:

Yozuv taxtasi o`rtasiga katta qog`oz varag`iga «Ta`lim-tarbiyaga turli yondashuvlar» so`zini yozing.

Sizning fikringizcha, bu mavzuga tegishli bo`lgan so`zlar yoki gaplar nimalardan iborat?

Tushuncha va g`oyalar to`g`risidagi o`zaro bog`lanishni o`rnatish.

Eslagan variantlaringizni hammasini yozing.

2.3. Klaster usulini tuzish ketma-ketligi

- ▶
- ▶ 1. Qog`ozning o`rtasiga yoki sinf doskasiga yoxud yozish uchun foydalanish mumkin bo`lgan sathga “kalit” so`z yoki gap yoziladi.
- ▶ 2. Shu mavzuga tegishli deb hisoblangan va xayolga kelgan so`z va gaplar yoziladi.
- ▶ 3. Fikrlar paydo bo`lganda va ularni yozganda fikrlar o`rtasida mumkin bo`lgan bog`lanishlarni belgilash.
- ▶ 4. Fikrlar tugamaguncha yoki vaqt tamom bo`lguncha xayolga kelgan barcha fikrlar yozilaveradi;
- ▶ 5. Keltirilgan so`z va fikrlar mazmuni hamda yaqinligiga qarab toifalarga ajratib chiqiladi.

2.4. Masg`ulot maqsadini belgilash uchun namuna

Mavzu: Kadrlar tayyorlash milliy modeli o`qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan urni.

Masg`ulot maqsadi

I. Bosh maqsad - «Ta'lim to`g`risida» gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy modelini o`rganish va bo`lg`usi o`qituvchilarda pedagogik mahoratni shakllantirish; Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni hayotga tadbqiq qilishga qodir bo`lgan qobiliyatlarni shakllantirish.

II. Oraliq maqsadlar (Ta'lim natijalari) - Mustaqillikdan keyingi ta'lim-tarbiya sohasidagi islohatlar mohiyatini bilish; Ta'lim qonuni va milliy dasturning qabul qilinish sabablari; Ta'lim qonunining tuzilishi va mohiyati; Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mohiyati; Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlari; o`qituvchilik kasbining tarixiy taraqqiyoti; o`qituvchining jamiyatda tutgan o`rni; uqituvchi shaxsining insonparvarligi to`g`risida tushuncha berish.

III. Harakatga teng maqsadlar (Natijaga erishish shartlari)- O`zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasida bulayotgan islohatlarga munosabat bildirish; Ta'lim qonuni va milliy dasturning qabul qilinish sabablarini tahlil etish; Ta'lim qonuni asosida ta'lim tizimi va turlarini yoddan sanab berish; Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi va uni ruyobga chiqarish bosqichlarini yoddan aytib berishga tayyorlanish; Kadrlar tayyorlash milliy modeli tarkibiy qismlari mohiyatini ochib

bera olish; o'qituvchilik kasbining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini gapirib berish; bugungi kunda jamiyatimizda o'qituvchining tutgan urniga munosabatini bildirish; o'qituvchi shaxsining insonparvarligiga o'z o'qituvchilari namunasida misollar keltirish.

IV. Erishilgan natijani ulchash me'yori (baholash usuli) - guruhlarga bulingan holda «Ta'lim tug'risida» gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturini «B-B-B jadval»i asosida tahlil qilish; «Mening ideal o'qituvchim» mavzusida referat tayyorlash; milliy modelning tarkibiy qismlariga sinkveyn tuzish; berilgan vaqt doirasida testlar tuplamini bajarish; Mashg'ulot davomida berilgan savollarga javob berish.

2.5. Testlarga misol

Yopiq test- test sharti savol yoki biror vazifa va qisqa javoblardan iborat bo'lib, ko'pincha javoblardan bittasi to'g'ri, qolganlari to'g'ri javobga o'xshashroq bo'ladi. Yopiq test deb atalishining boisi shundaki, o'quvchi quyilgan shartga o'z javobini berolmaydi, u testda keltirilgan javoblardan birini tanlashi lozim.

Misol. Predmet bo'yicha test topshiriqlari soni ko'payishi bilan pedagogik o'lchash (baholash) aniqligi qanday o'zgaradi?

A. Ortadi. V. Kamayadi. S. O'zgarmaydi. D. Qonuniyati yo'q.

Ochiq yoki qushimcha test topshiriqlari. Ochiq test vazifalari- kishiga o'z xohishiga ko'ra javob berish imkoniyatini yaratadi. Ochiq testlar, odatda bitta asosiy so'z yoki so'zlar tushirib qoldirilgan jumladir.

Misol. Yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo'lgan ma'lum miqdordagi o'quvchilar guruhiga _____ deyiladi.

To'g'ri javob: sinf.

Muvofiqlikni aniqlashga doir testlar. Bunda ikki xil tushuncha elementlari o'rtasidagi munosabatni aniqlash talab etiladi. Bunday topshiriqlar faqat bilimlarni nazorat qilish uchungina xizmat qilmay, balki ma'lumotlarni yodda saqlash, bilim doirasini kengaytirishga ham xizmat qiladi.

Misol.

1. An'anaviy ta'lim kamchiliklari.
 2. Noan'anaviy ta'lim kamchiliklari.
- A. O'quvchilar passiv ishtirokchi bo'lib qoladilar.
V. Ko'p vaqt talab etiladi.
S. O'quvchilarni har doim ham yetarlicha nazorat qilish imkoniyati past.
D. Murakkab material o'rganildayotganda ham o'qituvchi rolining past bo'lishi.
E. Motivasiya vujudga kelmaydi.

F. O'quvchilar o'kituvchi bilan bevosita muloqatga kirisha olmaydi.
To'g'ri javob: 1- A, E, F. 2- V, S, D.

Davomiylik (izchillik)ni to'g'ri belgilashga oid test topshiriqlari. Bunday topshiriqlar turli haraktlar, fikr yuritishlarda izchillik mavjudligini tekshirish, aniqlash uchun ishlatiladi. Mazkur topshiriqlar algoritmik bilimlarni nazorat qilish imkonini beradi, algoritmik bilimlar esa kasbiy ta'limning so'nggi bosqichlarida katta ahamiyatga ega.

2.6. Amaliy mashg'ulotni tahlil qilish varag'i

| Tahlil bosqichi nomi | Tahlil bosqichi mazmuni | Tahlil natijasi | Baholash ko'rsatkichlari va mezon | |
|---|---|-----------------|---|-------|
| | | | ko'rsatkichi | mezon |
| 1. Guruhlar uchun topshiriqlarni bajarish | Mavzu bo'yicha bilimlarni jonlantirish uchun berilgan savollarga javob berish. Klaster tuzish | | Aniq va lo'nda | 0,5 |
| 2. Guruhlarda Blits savollarga javob berish | Kichik guruhlarda Blits savollarga javob berish | | To'g'ri va aniq | 0,5 |
| 3. Talabalar uyda tayyorlab kelgan o'quv maqsadlarini loyihash. | Talabalar uyda tayyorlab kelgan mavzu asosida o'quv maqsadlarini loyihashni taqdim etishi. | | Aniqlik, asoslanganligi | 0,5 |
| 4. Uyda tuzib kelgan testlarni baholash. | Uyda tuzib kelgan testlarning tuzilishi, mazmuni | | Testlarning tuzilishi, mazmuni, murakkabligi | 0,5 |
| 5. Noan'anaviy shakldagi dars ishlanmasi | Har bir guruh tayyorlagan noan'anaviy shakldagi dars ishlanmasi | | Tuzilishdagi tartiblilik, metodlarning to'g'ri tanlanishi | 1 |

III. O`Z-O`ZINI NAZORAT QILISH UCHUN MATERIALLAR

3.1. “An`anaviy va noan`anaviy ta`lim tizimi tahlili” mavzu bo`yicha munozaraga tayyorlaning

3.2. Test topshiriqlari.

1. Ta'lim jarayonini “Texnologiyalash” qanday ma'noni bildiradi?

A) O`qitishning texnik vositalari yordamida tashkil etishni bildiradi;

B) Ta'lim maqsadlariga erishishda ta'lim jarayonini o`qituvchining shaxsiy mahoratiga bog`liq bo`lmagan holda universal tarzda loyihalanganini bildiradi;

V) O`quv ishlab chiqarish ta'limi tushuniladi;

G) O`qituvchi o`quvchi bilish faoliyatining tashkiliy shakllarini ta'lim mazmuniga mos holda tanlashini bildiradi.

2. Pedagogik texnologiyaning aspekti aks ettirilgan qatorni ko`rsating.

A) Umumpedagogik, xususiy, metodik, lokal; B) Tizimlilik, samaralik, boshqaruvchanlik;

V) insonparvarlik, dialektik, metodik; G) ilmiy, tavsifiy, amaliy.

3. Pedagogik texnologiyalarni qanoatlantiradigan mezonlari nimalardan iborat?

A) Izchillik;

B) Boshqaruvchan asoslashganlik;

V) Samaradorlik;

G) Javoblarning barchasi to`g`ri.

TAKLIF VA MULOHAZALAR

**“Didaktik jarayon pedagogik texnologiya asosi sifatida” mavzusidagi
4-laboratoriya mashg`ulotining ta'lim texnologiyasi modeli**

| | |
|---|--|
| <i>Mashg`ulotga ajratilgan vaqt – 2 soat</i> | Talabalar soni- 20-25 |
| <i>Mashg`ulot mavzusi</i> | DIDAKTIK JARAYON PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSI SIFATIDA |
| <i>O`quv mashg`ulotining shakli</i> | Laboratoriya |
| <p style="text-align: center;">Mashg`ulot rejasi:</p> <p style="text-align: center;">Nazariy savollar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Didaktik jarayon tuzilmasi. 2. Motivatsiyani vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar 3. O`quv – bilish faoliyatini boshqarish. <p style="text-align: center;">Amaliy ish</p> <p>a) Motivatsiyani vujudga keltirishga oid misollar keltiring. (Mutaxassislik fani misolida)</p> <p>b) «Pedagog- pedagogik texnologiya loyihasi muallifi sifatida» degan fikrning mohiyatini yoritib bering.</p> | |
| <i>Mashg`ulotning maqsadi:</i> | Talabalarni pedagogik tizim va uning tarkibiy qismlari haqidagi bilimlarini mustahkamlash, pedagogik tizimning muhim tarkibiy qisimli bo`lgan didaktik jarayon haqida ma'lumot berish, didaktik jarayonning komponentlari bilan tanishtiriladi, motivatsiyani vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar hamda o`quv – bilish faoliyatini boshqarish masalalarini o`rganishlari ko`zda tutiladi. |
| <p style="text-align: center;">Talabaning o`quv faoliyati natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Pedagogik tizim mohiyatini aytib beradi. - Pedagogik tizimning tarkibiy qismlarini sanab beradi. - Pedagogik tizimda didaktik jarayonning o`rnini izohlaydi. - Didaktik jarayonning o`zaro bog`liq komponentlarini sanab beradi. | |

- O`quv jadayoni va didaktik jarayonning farqini izohlab beradi.
- Didaktik jarayonda amal qilinadigan prinsip (1. Didaktik jarayonda tabiiy muvofiqlik prinsipi. 2. Didaktik jarayonda intensiv prinsip) larni biladi.
- Motiv va motivatsiya tushunchalari ta`rifini aytib beradi.
- Motiv tushunchasi otivatsiyani vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar haqida qarashlarini bayon etadi.
- O`quvchilarning o`quv faoliyati va o`quv – bilish faoliyatini boshqarishning ahamiyati yoritiladi.
- Didaktik jarayonni tashkil etishda o`qituvchi o`quv-bilish faoliyatining tashkiliy shakllariga ham to`xtab o`tiladi.
- Pedagogning pedagogik tizimda tutgan o`rni qandayligini misollar bilan izohlab beradi.
- Mutaxassislik fani misolida motivatsiyani vujudga keltirishga oid misollar keltiradi
-

Mustaqil o`rganish uchun topshiriqlar:

1. Mutaxassislikka oid biror mavzu bo`yicha motivatsiyani vujudga keltirishga oid misollar keltiring.

Eslatma: Har bir talaba mutaxassisligi bo`yicha motivatsiyani vujudga keltirishga oid misollar keltiradi.

2. «Pedagog- pedagogik texnologiya loyihasi muallifi sifatida» mavzusiga 10 minutlik Esse yozish. Eslatma: 3.1- ga qarang.

3. O`quv topshiriqlarni bajarishga tayyorlaning,
Mavzuni B-B-B –texnologiyasi asosida o`rganing,
Blits-savol-javoblarda ishtirok eting. Eslatma: 1.1, 1.2, 1.3, 1.4, 1.5-ga qarang.

4. Mavzu bo`yicha munozaraga tayyorlaning.

| | | |
|---|---|---|
| Didaktik vositalar | | Ko`rg`zmalar, slaydlar, maxsus texnik vositalar |
| Nazorat shakli: Og`zaki nazorat, savol-javob va laboratoriyaning yozma varianti. | Maksimal ball: 3 b. Talabaga qo`yilgan _____ ball: | O`qituvchi imzosi: _____ |

4- Laborotoriya mashg'ulotining texnologik xaritasi

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|--|
| | O'qituvchi | Talaba, guruh |
| 1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (15 minut) | 1.1. Talabalarni mavzuning nomlanishi, maqsadi va asosiy tushunchalar bilan tanishtiradi (1-ilova) | Tinglaydilar. |
| | 1.2. Mavzu rejasidagi masalalarni taqdim etadi (2-ilova). | Rejadagi masalalarni yana bir esga oladilar |
| | 1.3. Talabalarni guruhlariga bo'linishni taklif etadi. Kichik guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishtiradi | Ikki guruhga bo'linishadi. Guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishadilar |
| | 1.4. "B-B-B" strategiyasi mohiyati bilan tanishtirib, uning "Bilaman" ustunini to'ldirishni so'raydi (1.3.,2.1.) | "B-B-B" strategiyasining "Bilaman" ustunini to'ldirishadi. |
| 2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (45 minut) | 2.1. Guruhlarga "B-B-B" jadvalining "Bilishni xohlayman" ustunini to'ldirishni so'raydi (2.1.) | "B-B-B" jadvalining "Bilishni xohlayman" ustunini to'ldirishadi |
| | 2.2. Guruhlarga Blits savollarga javob berishni taklif etadi (2.2.) | Blits savollarga javob berishadi |
| | 2.3. Talabalar uyda tayyorlab kelgan motivatsiya paydo qilishga oid misollarni taqdim etishlarni so'raydi. | Talabalar uyda tayyorlab kelgan ishlarini taqdim etishadi |
| 3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (20 minut) | 3.1. «Pedagog- pedagogik texnologiya loyihasi muallifi sifatida» mavzusiga 10 minutlik Esse yozishni taklif etadi (3.1) | 10 minutlik Esse yozishadi |
| | 3.2. Test savollariga javoblar berishni taklif qiladi (3.2.) | Test savollariga javoblar berishnadi |
| | 3.3. "B-B-B-jadvali"ning 3-ustunini to'ldirishni taklif qiladi (2.1) | "B-B-B" jadvalining "Bilib oldim" ustunini to'ldirishadi |
| | 3.4. Amaliy mashg'ulotni baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini, guruhlar to'plagan ballarni e'lon qiladi (2.3) | Guruhlarning javoblariga berilgan bahoni eshitishadi |

Mavzu

DIDAKTIK JARAYON PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSI SIFATIDA

REJA

Nazariy savollar

1. Didaktik jarayon tuzilmasi.
2. Motivatsiyani vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar
3. O`quv – bilish faoliyatini boshqarish.

Amaliy ish

- a) Motivatsiyani vujudga keltirishga oid misollar keltiring. (Mutaxassislik fani misolida)
- b) «Pedagog- pedagogik texnologiya loyihasi muallifi sifatida» degan fikrning mohiyatini yoritib bering.

ASOSIY TUSHUNCHALAR

- Didaktik jarayon tuzilmasi. Motivatsiya o`quv- bilish faoliyatining boshlangich bosqichi. Motivatsiyani vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar. Oquv -bilish faoliyati tarkibi: yo`naltiruvchi, bajaruvchi, nazorat qiluvchi va tuzatuvchi harakatlar. O`quv – bilish faoliyatini boshqarish muammosi, funksiyalari va metodi. Didaktik jarayonni qurish prinsiplari. O`quvchilarning o`quv- bilish faoliyati tashkiliy shakllari. Pedagog- pedagogik texnologiya loyihasi muallifi sifatida. O`qitishning texnik vositalaridan foydalanish pedagogik texnologiya shartlaridan biri ekanligi.


I. O'QUV MATERIALLAR

1.1. Pedagogik tizim tarkibi

Pedagogik tizim o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi invariantiv elementlardan tashkil topadi:

1. O'quvchilar (talabalar).
2. Ta'lim-tarbiya maqsadlari.
3. Ta'lim-tarbiya mazmuni.
4. Didaktik jarayon.
5. Tashkiliy shakllar.
6. Pedagog yoki O'TV

Chizmada quyidagicha ifodalanadi.



1.2. O'qitish jarayoni va didaktik jarayonning farqi

V.P.Bespalko o'qitish jarayoni va didaktik jarayonning farqini shunday ko'rsatadi:

«O'qitish jarayoni «klassik qoida»ga bo'ysunadi. Ya'ni o'qituvchi sinfga kirib, dars mavzusini e'lon qiladi va darhol uning mazmunini bayon qilishga kirishib ketadi. Didaktik jarayon esa har bir dars (ma'ruza)ni boshlashdan oldin o'quvchilar diqqatini jalb qila oladigan faoliyat bosqichi-motivatsiyani vujudga keltirishdan boshlanadi. Ana shu motivatsiya bosqichi o'quv-bilish faoliyatining kaliti hisoblanadi».

O'qitish jarayoni tuzilishini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$O'J = O'F + O'qF;$$


Didaktik jarayonni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$DJ = M + O'F + B$$

bunda

- Motivatsion bosqich- (M);
- O'quvchining o'quv-bilish faoliyati- (O'F);
- Boshqarish-(B).

1.3. B-B-B jadvali



II. O`QUV TOPSHIRIQLAR

2.1. B.B.B- jadvalini to`ldiring.

| <i>№</i> | <i>Mavzu savollari</i> | <i>Bilaman</i> | <i>Bilishni istayman</i> | <i>Bilib oldim</i> |
|----------|-------------------------------------|----------------|--------------------------|--------------------|
| 1. | Pedagogik tizim tarkibi | | | |
| 2. | Didaktik jarayon tuzilmasi | | | |
| 3. | Motiv va motivatsiya mohiyati | | | |
| 4. | Motivatsiyani paydo qilish yo'llari | | | |

2.2. Blitz-so'rov savollari

| <i>№</i> | <i>Savol</i> | <i>Javob</i> |
|----------|---|--------------|
| 1. | Pedagogik tizimning tarkibiy qismlarini sanab bering | |
| 2. | Pedagogik tizimda didaktik jarayonning o'rnini qanday ? | |
| 3. | Didaktik jarayon qanday komponentlardan tarkib topgan? | |
| 4. | Didaktik jarayonning o'quv jarayonidan farqi nimada? | |
| 5. | Motiv nima? | |
| 6. | Motivatsiya nima? | |
| 7. | Didaktik jarayonni tashkil etishda o'qituvchining o'rnini qanday? | |

2.3. Amaliy mashg'ulotni baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

| Tahlil bosqichi nomi | Tahlil bosqichi mazmuni | Tahlil natijasi | Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari | |
|---|--|------------------------|--|------------------|
| | | | ko'rsatkichi | mezonlari |
| 1.B-B-B-jadvalining "Bilaman" ustunini to'ldirish | B-B-B-jadvalining "Bilaman" ustunini to'ldirgani, mavjud bilimlari | | aniq | 0,5 |
| 2. Guruhlarda Blitz savollarga | Kichik guruhlarda Blitz savollarga javob berish | | To'g'ri va aniq | 0,5 |

| | | | | |
|--|---|--|-------------------------|-----|
| javob berish | | | | |
| 3. Talabalar uyda tayyorlab kelgan motivatsiyaga misollari | Talabalar uyda tayyorlab kelgan mutaxassislik mavzusi asosidagi motivatsiyaga misollarni taqdim etishi. | | Aniqlik, asoslanganligi | 0,5 |
| 4. Testlarni baholash. | Testlarga berilgan javob | | Aniq, to'g'ri | 0,5 |
| 5. "B-B-B-jadvali"ning to'ldirilishi | Har bir guruh tomonidan to'ldirilgan "B-B-B-jadvali" baholanadi | | Aniq xulosaga kelish | 1 |

2,2 – 3 ball – a'lo

1,2 – 2 ball – yaxshi

0,5 – 1,1 ball – qoniqarli

0 – 0,5 ball – qoniqarsiz

III. O`Z-O`ZINI NAZORAT QILISH UCHUN MATERIALLAR

3.1. «Pedagog- pedagogik texnologiya loyihasi muallifi sifatida» mavzusiga 10 minutlik Esse yozib keling.

ESSE

Esse – taklif etilgan mavzuga 1000 dan 5000 gacha so`z hajmidagi insho.

Esse – bu muallifning ta'kidlab o'tadigan individual pozitsiyasidagi erkin ifoda etish shakli; qandaydir predmet bo'yicha umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni o'z ichiga oladi.

Besh (o`n) daqiqalik esse

Besh (o`n) daqiqali esse – o`rganilayotgan mavzu bo'yicha olingan bilimlarni umumlashtirish, mushohada qilish maqsadida o`quv mashg`uloti oxirida 5 (10) daqiqa oralig`ida olib boriladi.

O`qituvchi taklif etishi mumkin:

- «Men bu ... haqida nimani o`ylayman» yoki «Nima uchun, mening fikrimga ko`ra ...» savollariga javob bering;

- o`quv mashg`ulotida berilgan talabalar uchun yangi sanalgan g`oyani tavsiflash va sharhlab berish;

- olingan bilim, ko`nikmalar qayerda amaliyotda qo`llanilishini tavsiflash.

Ushbu ko`rinishdagi esse baholanmasligi ham mumkin. Ammo, o`qituvchi juftliklarga ajralish, ishlar bilan o`zaro almashish va yozilganlarni muhokama qilish taklifini berishi mumkin. Ushbu holda o`qituvchi 2-3 ta essen tanlab

tekshirishi mumkin, ularni ovozini chiqargan holda sharhlashi, talabalar bilan muhokama qilishi va xulosa qilishi mumkin.

3.2. Testlarni yeching.

1) Tizim so'zi qanday ma'noni anglatadi?

A. Tuzilma, qismlardan tuzilgan, birikkan narsa yoki hodisa ma'nosini anglatadi.

B. butun bir buyum ma'nosini anglatadi

S. kichik-kichik bo'laklarni birlashishini bildiradi.

D. ta'lim va tarbiya birligini bildiradi

2) Ta'lim ishiga texnologik yondashuv nimani nazarda tutadi:

A. O'qish-o'qitish jarayonini o'zaro uzviy bog'liq etaplar, fazalar, amallarga ajratish, bulishni.

B. Ta'limdan kutilgan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni.

S. Loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barchasini birdek bajarishni.

D. Yuqoridagilarning barchasini

3) Didaktik loyihalarning eng oddiysi nima?

A. darslik

B. dastur

S. DTS

D. dars konspekti

4) Didaktik loyihalashda loyihalash predmeti nima?

A. ma'lumot mazmuni yoki uning bir qismi- o'quv material

B. ta'lim-tarbiya maqsadi

S. DTS

D. dars konspekti

5) Didaktik jarayon tarkibiga nima kiradi?

A. Motivatsion bosqich- (M);

B. O'quvchining o'quv-bilish faoliyati-(O'F);

S. Boshqarish-(B).

D. Yuqoridagilarning barchasi

6) Tizim so'zi qanday ma'noni anglatadi?

A. Tuzilma, qismlardan tuzilgan, birikkan narsa yoki hodisa ma'nosini anglatadi.

B. butun bir buyum ma'nosini anglatadi

S. kichik-kichik bo'laklarni birlashishini bildiradi.

D. ta'lim va tarbiya birligini bildiradi

7) Ta'lim ishiga texnologik yondashuv nimani nazarda tutadi:

A. O'qish-o'qitish jarayonini o'zaro uzviy bog'liq etaplar, fazalar, amallarga ajratish, bulishni.

B. Ta'limdan kutilgan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni.

S. Loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barchasini birdek bajarishni.

D. Yuqoridagilarning barchasini

8) Didaktik loyihalarning eng oddiysi nima?

A. darslik

B. dastur

S. DTS

*D.dars konspekti

9) Didaktik loyihalashda loyihalash predmeti nima?

A. ma`lumot mazmuni yoki uning bir qismi- o`quv material

B. ta`lim-tarbiya maqsadi

S. DTS

D.dars konspekti

10) Didaktik jarayon tarkibiga nima kiradi?

A. Motivatsion bosqich- (M);

B. O`quvchining o`quv-bilish faoliyati-(O`F);

S. Boshqarish-(B.

D. Yuqoridagilarning barchasi

11) Didaktik jarayon nimadan boshlanadi.

A. Didaktik jarayonda o`qituvchi sinfga kirib, dars mavzusini e`lon qiladi va darhol uning mazmunini bayon qilishga kirishib ketadi.

B.Didaktik jarayon o`qitishning texnik vositalaridan foydalanishdan boshlanadi.

S. Didaktik jarayonda har bir darsni boshlashdan oldin o`quvchilar diqqatini jalb qila oladigan faoliyat bosqichi-motivatsiyani vujudga keltirishdan boshlanadi.

D. Didaktik jarayon o`quvchilarning javob berishidan boshlanadi.

12) O`quvchilarda hosil bo`ladigan motivlarning kuchli yoki kuchsiz bo`lishi nimaga bog`liq?

A.Darsning mavzusiga bog`liq

B.O`qituvchining bilim darajasiga bog`liq

S. O`qituvchining pedagogik mahoratiga bog`liq

D. O`quvchining bilimiga bog`liq

13) Pedagogik motivlar qaysi qatorda to`g`ri berilgan

A. ehtiyoj, manfaat, maqsad.

B. vosita, usul, yo`l, havas

S. faoliyat, ta`lim

D. ta`lim, tarbiya,

14). Motiv nima?

A. darsga yangilik olib kirish

B. o`qitishning texnik vositalaridan foydalanish

S. kishini biror ish-harakatni bajarishga undovchi da`vat, turtki.

D. darsni noan`anaviy usulda olib borish

TAKLIF VA MULOHAZALAR

**“Pedagogik texnologiya tamoyillari.
Didaktik jarayon tuzilmasiga asoslangan o`qitish metodlari” mavzusidagi
5-laboratoriya mashg`ulotining ta'lim texnologiyasi modeli**

| | | | |
|--|--|--|---------------------------------|
| <i>Mashg`ulotga ajratilgan vaqt – 2 soat</i> | | Talabalar soni- 20-25 | |
| <i>Mashg`ulot mavzusi</i> | | PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA TAMOYILLARI. DIDAKTIK JARAYON TUZILMASIGA ASOSLANGAN O`QITISH METODLARI | |
| <i>O`quv mashg`ulotining shakli</i> | | Laboratoriya | |
| Mashg`ulot rejasi: Nazariy savollar 1. Tamoyil tushunchasi va uning pedagogik texnologiyadagi talqini. 2. Pedagogik texnologiya tamoyillari. 3. Ta`limning samarali metodlari Amaliy ish a) Mutaxassislik fanidan biror mavzuni o`tishda «Aqliy hujum», «Munozara» yoki «Debat» usullarini qo`llashga oid dars ishanmasi tuzish b) Mutaxassislik fani xususiyatidan kelib chiqib, ta`limning samarali metodlarini topish | | | |
| <i>Mashg`ulotning maqsadi:</i> | Pedagogik texnologiyalar va uning tamoyillari haqida tushuncha hosil qilish. Pedagogik texnologiyalarning tamoyillari va elementlari bo`yicha bilimlarni chuqur o`zlashtirishni ta`minlash | | |
| Talabaning o`quv faoliyati natijalari: <ul style="list-style-type: none">• amaliy mashg`ulot rejalari bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko`radi;• tamoyil tushunchasiga ta`rif beradi;• pedagogik texnologiya tamoyillarini sanab beradi• yangi pedagogik texnologiyalarning samarali yo`llarini yoritib beradi;• akademik litsey va kasb-hunar kollejlari da zamonaviy o`qitish uslublarini tahlil qiladi;• pedagogik psixologik holatni ko`rish texnologiyasiga izoh beradi;• individual tarzda testlarni yechadi, diskussiyada faol ishtirok etadi;• mutaxassislik fanidan biror mavzuni o`tishda «Aqliy hujum», «Munozara» yoki «Debat» usullarini qo`llashga oid dars ishanmasi tuzishni mashq qiladi. | | | |
| Mustaqil o`rganish uchun topshiriqlar: 1. O`quv materiallari bilan tanishib chiqing. Eslatma: 1.1., 1.2., 1.3. 2. Mutaxassislik fanidan biror mavzuni o`tishda «Aqliy hujum», «Munozara» yoki «Debat» usullarini qo`llashga oid dars ishanmasi tuzing. Eslatma: Har bir talaba biror mavzuni o`tishda «Aqliy hujum», «Munozara» yoki «Debat» usullarini qo`llashga oid dars ishanmasi tuzadi.2.1, 2.2, 2.3 3. Savollarga javob bering, B-B-B jadvalni to`ldiring. Eslatma: 3.1, 3.2, -ga qarang. 4. Testlarni yeching 4.1. | | | |
| Didaktik vositalar | | Ko`rg`zmalar, slaydlar, maxsus texnik vositalar | |
| Nazorat shakli: Og`zaki nazorat, savol-javob va laboratoriyaning yozma varianti. | | Maksimal ball: 3 b. Talabaga qo`yilgan ball: | O`qituvchi imzosi: _____ |

5- Laborotoriya mashg'ulotining texnologik xaritasi

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|--|--|
| | O'qituvchi | Talaba, guruh |
| 1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (10 minut) | 1.1. Talabalarni mavzuning nomlanishi, maqsadi va asosiy tushunchalar bilan tanishtiradi (1-ilova) | Tinglaydilar. |
| | 1.2. Mavzu rejasidagi masalalarni taqdim etadi (2-ilova). | Rejadagi masalalarni yana bir esga oladilar |
| | 1.3. Talabalarni guruhlariga bo'linishni taklif etadi. Kichik guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishtiradi | Ikki guruhga bo'linishadi. Guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishadilar |
| | 1.4. "B-B-B" jadvalining "Bilaman" ustunini to'ldirishni so'raydi (3.1.) | "B-B-B" strategiyasining "Bilaman" ustunini to'ldirishadi. |
| 2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (55 minut) | 2.1. Guruhlarga "B-B-B" jadvalining "Bilishni xohlayman" ustunini to'ldirishni so'raydi (3.1.) | "B-B-B" jadvalining "Bilishni xohlayman" ustunini to'ldirishadi |
| | 2.2. «Pedagogik texnologiyalar» tushunchasi uchun tuzilgan Kontseptual jadvalni o'rganishni taklif qiladi(1.1,1.2,1.3,1.4.) | Kontseptual jadvalni va boshqa axborotlarni o'rganishadi |
| | 2.2. Guruhlar savollarga javob berishini taklif etadi (3.2.) | Savollarga javob berishadi |
| | 2.3. Talabalarga «Aqliy hujum», «Munozara», «Debat» usullari qoidalari tushuntirib, uyda tayyorlab kelgan dars ishlanmalarini taqdim etishlarni so'raydi (2.1,2.2,2.3,2.4,3.3) | Talabalar uyda tayyorlab kelgan mashg'ulot ishlanmalarini taqdim etishadi |
| 3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (15 minut) | 3.2. Test savollariga javoblar berishni taklif qiladi (4.1.) | Test savollariga javoblar berishnadi |
| | 3.3. "B-B-B-jadvali"ning 3-ustunini to'ldirishni taklif qiladi (3.1) | "B-B-B" jadvalining "Bilib oldim" ustunini to'ldirishadi |
| | 3.4. Amaliy mashg'ulotni baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini, guruhlar va talabalar to'plagan ballarni e'lon qiladi (3.4) | Guruh va talabalarning javoblariga berilgan bahoni eshitishadi |

Mavzu

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA TAMOYILLARI. DIDAKTIK JARAYON TUZILMASIGA ASOSLANGAN O`QITISH METODLARI

REJA

Nazariy savollar

1. Tamoyil tushunchasi va uning pedagogik texnologiyadagi talqini.
2. Pedagogik texnologiya tamoyillari.
3. Ta`limning samarali metodlari

Amaliy ish

- Mutaxassislik fanidan biror mavzuni o`tishda «Aqliy hujum», «Munozara» yoki «Debat» usullarini qo`llashga oid dars ishanmasi tuzish
- Mutaxassislik fani xususiyatidan kelib chiqib, ta`limning samarali metodlarini topish

ASOSIY TUSHUNCHALAR

- Tamoyil (prinsip) tushunchasi va uning pedagogik texnologiyadagi talqini. O`qitish tamoyillari: ilmiylik, tizimlilik va izchillik, onglilik, faollik va mustakillik, kursatmalilik, oquvchiga xos xususiyatlarni hisobga olinishi. Ta`lim jarayoni. Pedagogik texnologiya tamoyillari. O`qitish tamoyillari va pedagogik texnologiya tamoyillarining o`xshashlik va farqli tomonlari. Pedagogik texnologiya prinsiplari: maqsadlilik, yakuniylik, tugallanganlik. Maqsad va vazifalar katalogini ishlab chiqish, korreksiya. Test topshiriqlari. O`quv maqsadini baholash

I. O'QUV MATERIALLAR


1.1. Kontseptual jadval «Pedagogik texnologiyalar»

| Pedagogik texnologiyalar tarkibi | Pedagogik texnologiyalar tamoyillari | Pedagogik texnologiyalar elementlari | Pedagogik texnologiyalar metodlari |
|---|---|---|---|
| 1.O'qishning maqsadi; 2.O'quv materialining mazmuni; 3.O'quv jarayonini tashkil qilinishi; 4.Talabalar o'quv faoliyatining turlari va metodlari; 5.O'qituvchi ishining shakl va metodlari; 6.O'qituvchining materialni o'zlashtirishni boshqarish bo'yicha faoliyati; 7.O'quv jarayonining diagnostikasi. | 1.Muntazam tahlil qilib borish; 2.Loyihalashtiruvchi vositalarning eng zarurini tanlash; 3.Metodlarning maqsadga muvofiqligini aniqlay bilish (ta'lim metodlari); 4.Olinishi zarur bo'lgan natijasini oldindan taxmin qilish (maqsadlarning amalga oshishiga erishish); 5.Ta'lim jarayonining yaxlitligini ta'minlash | 1.Diagnoz; 2.O'quv birliklarini (mezonlarini) belgilash; 3.Diagnostik tahlil; 4.Tuzatish kiritish (korrektsiya); 5.Qayta to'latish (ketma-ketlik yo'qotish); 6.Kutilishi lozim bo'lgan natijani olish; 7.Reyting. | 1.O'qitishning ma'ruza (suhbat) metodi; 2.O'qitishning amaliy ishlar metodi; 3.Laboratoriya ishlar metodi; 4.Mustaqil ishlar metodi; 5.Muammoli evristik modellashtirish metodi; 6.Ilmiy-tadqiqot metodlari 7.O'qitishning muammoli izlanish va reproduktiv metodi; 8.O'qitishning induktiv va deduktiv metodi; 9.O'qitishning nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodi. |


1.2. Prinsip-tamoyil so'zi ma'nosi

Prinsip- yunoncha «prinsipium» so'zidan olingan bo'lib, asos, dastlabki holat, boshqaruvchi g'oya, umumlashgan talab kabi ma'nolarni anglatadi. Didaktikada olimlar prinsiplarni turlicha talqin qilishadi: pedagogik holatni yo'lga soladigan didaktik holatlar, tavsiyalar (V.I. Zagviyazinskiy, L.I. Grisenko), o'qitishning me'yoriy asoslari (M.A.Danilov), didaktik maqsadga erishish usullari (I.A.Lerner) va hokazo.

1.3. Yangi pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyillari



1.4. Yangi pedagogik texnologiya elementlari:



2.1. «Aqliy hujum»ning qoidalar

1. Fikr va g'oyalar hech qanday cheklanmagan holda iloji boricha qattiqroq aytilishi lozim;
2. Bildirilgan fikr va g'oyalar takliflar berish to'xtatilmaguncha muhokama qilinmaydi, baholanmaydi;
3. Bildirilgan har qanday g'oya va fikrlar hisobga olinadi;
4. Qancha ko'p g'oya va fikrlar bildirilsa shuncha yaxshi;
5. Bildirilgan g'oya va fikrlarni to'ldirish va yanada kengaytirish mumkin;
6. Barcha aytilgan takliflar yozib boriladi;
7. Takliflarni bildirish uchun vaqt aniq belgilanadi.

“AQLIY HUJUM” NI QO`LLASHGA TALABLAR

- ❖ Hech qanday o`zaro baholash va tanqidga yo`l qo`yilmaydi!
- ❖ Taklif etilayotgan fikrlarni baholashga shoshilma, agarda ular g`aroyib bo`lsa ham – barcha narsa mumkin.
- ❖ Tanqid qilma – barcha fikrlar teng qadrli.
- ❖ So`zlovchini to`xtatma!
- ❖ Tanbeh berma!
- ❖ Maqsad bu miqdor!
- ❖ Fikrlar qanchalik ko`p bildirilsa, shuncha yaxshi: yangi va qadrli fikr paydo bo`lish ehtimoli ortadi.
- ❖ Agar fikrlar qaytarilsa hafa bo`lma va achchiqlanma.
- ❖ Tasavvuriningga erk ber!
- ❖ Paydo bo`layotgan fikrlardan o`zingni to`xtatma, agar seningcha ular qabul qilingan chizmalarga mos kelmasa ham.
- ❖ Muammo hammaga ma'lum usullar orqali yechilishi mumkin deb o`ylama.

2.2.

To`g`ridan-to`g`ri jamoali aqliy hujum – iloji boricha ko`proq fikrlar yig`ilishini ta'minlaydi. Butun o`quv guruhi (25dan ortiq bo`lmagan) bitta muammoni hal etadi.

Ommaviy aqliy hujum – mikroguruhlariga bo`lingan katta auditoriyada (60 kishigacha) fikrlar generatsiyasi samaradorligini keskin oshirish imkonini beradi.

Har bir guruh ichida umumiy muammoning bir jihatini hal etiladi.


Aqliy hujumni tashkil etish jarayonining tuzilishi

To`g`ridan-to`g`ri jamoali AH

O`qituvchi butun guruhga muammoli topshiriq beradi va uni hal etish bo`yicha fikrlarni ifoda etishni taklif etadi. Qo`yilgan muammoga ta'luqli har qanday fikrni ifoda etish mumkinligi to`g`risida ogohlantiradi. AH qoidalari bilan tanishadilar

Fikrlar ifodalanadi, o`qituvchi (assistent) esa ularni doskaga yoki flipchartga yozadi

AH tugashi bilan: (1) fikrlar baholanadi va eng yaxshilari tanlanadi; (2) barcha yozilgan fikrlar taqdim etilgan muammoni konstruktiv qarorini ishlab chiqish maqsadida guruhlashtiriladi, toifalarga bo`lib chiqiladi (Pinbord texnikasi, toifali jadvalga qarang)



2.3.

MUNOZARA»NI O'TKAZISH USULI

- Yetakchi munozara mavzusini tanlaydi va qatnashuvchilarni taklif qiladi;
- Yetakchi qatnashuvchilarga muammoni «Aqliy hujum» masalasini beradi va uni o'tkazish tartibini belgilaydi;
- «Aqliy hujum» vaqtida bildirilgan g'oya va fikrlarni yozib borish uchun kotib tayinlanadi. Bu bosqichda guruh qatnashchilarining har biri o'z fikrini bildirishiga sharoit yaratiladi;
- Yetakchi ikkinchi bosqichga o'tishdan avval qisqa tanaffus e'lon qiladi. Ikkinchi bosqichda bildirilgan fikr va g'oyalarni guruhlashtirib, ularni tahlil qilishga o'tiladi;
- Tahlil orqali qo'yilgan vazifani eng maqbul yechimini topishga harakat qilinadi.

2.4.

DEBATLAR

- ▶ Debatlar asosida darslarni tashkil etishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad muammoning yechimini topishda o'quvchi o'zgalarni o'z yondashuvining to'g'riligiga ishontirishdir. O'z fikrini aniq va mantiqiy bayon etish, buning uchun esa ishonarli dalillar va xulosalar topish ko'nikmalarini shakllantirishda debatlar o'tkazish samarali metod hisoblanadi. Ular o'quvchilarda ijtimoiy fikrni o'zgartirishga ta'sir etish qobiliyati mavjudligiga ishonch tuyg'ularini rivojlantiradi.

Debatlarni o'tkazish tartibi:

1. Qulay bo'lishi uchun rezolyutsiyani qo'llab-quvvatlaydiganlar o'qituvchining o'ng tomoniga, qarshilar esa chap tomoniga joylashaglari ma'qul.
2. O'qituvchi muhokama mavzusni va ikkala rezolyutsiya variantlarini bayon qiladi, so'zga chiquvchilar uchun vaqtni belgilaydi.
3. O'qituvchi dastlab rezolyutsiyani qo'llaydiganlarning birinchisiga so'z beradi va undan konstruktiv argumentlarni bayon qilishni so'raydi.
4. Rezolyutsiyani qo'llamaydigan guruh o'kuvchilaridan birinchisiga so'z beriladi va o'z fikrini argumentlar bilan asoslab beradi.
5. So'ngra birinchi guruhning ikkinchi raqamli o'quvchisiga va ikkinchi guruhning ikkinchi raqamli o'quvchisiga so'z beriladi. Shu holat barcha debat ishtirokchilari navbatma-navbat chiqish qilgunlariga qadar davom etadi.
6. Keyingi bosqichda har bir ishtirokchi qarshi tomonning dalillarini inkor etib tashlashga va ular tanqidiga javob berishiga imkoniyat tu'diriladi.
7. Masala talashish davomida yangi argumentlarni keltirish mumkin. Bahsni doim rezolyutsiyaga qarshi tomon vakillari boshlashadi.
8. O'quvchilar bu bosqichda rezolyutsiyaga nisbatan u yoki bu mavqeni egallash sabablarini bayon qilishadi.
9. Ishtirokchilar shunday argumentlarni ko'rsatishi kerakki, 1-dan, ularning qarashlari muammo yechimiga zid bo'lishi mumkin, 2-dan, barchani o'ylashga majbur etsin, 3-dan, hayratda qolarli darajada ifodalanishi lozim.
10. Debat so'ngida o'kuvchilar qarshi tomon qabul qilgan rezolyutsiyaning joriy etilishi oqibatlarini baholashi kerak. Shuningdek, har ikki tomondan o'rta tashlangan qarashlarni hayotga tadbiq etish jamiyat uchun qanchalik foydali yoki zararli ekanligini ham muhokama qilinishi mumkin.

2. O'QUV TOPSHIRIQLAR

3.1.B.B.B jadvalini to'ldiring.

| <i>No</i> | Mavzu savollari | Bilaman | Bilishni istayman | Bilib oldim |
|-----------|---------------------------------------|----------------|--------------------------|--------------------|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 1 | Ta'lim tamoyillari | | | |
| 2 | Tarbiya tamoyillari | | | |
| 3 | Pedagogik texnologiya tamoyillari | | | |
| 4 | Pedagogik texnologiyaning elementlari | | | |
| 5 | Pedagogik texnologiyaning metodlari | | | |

3.2.Savollarga javob bering.

1. Tamoyil tushunchasiga ta'rif bering.
2. Pedagogik texnologiya tamoyillarini sanab bering.
3. Pedagogik texnologiyalar tarkibiga nimalar kiradi?
4. Pedagogik texnologiyalar tamoyillari qaysilar?
5. Pedagogik texnologiyalar elementlarini ko'rsating
6. Pedagogik texnologiyalar metodlari nimalar?
7. Individual tarzda testlarni yeching

3.3. Mutaxassislik fanidan biror mavzuni o'tishda «Aqliy hujum», «Munozara» yoki «Debat» usullarini qo'llashga oid tuzib kelingan dars ishanmasi taqdimoti.

IV. O`Z-O`ZINI NAZORAT QILISH UCHUN MATERIALLAR

4.1.Testlar

1.O`qitish vositalari tizimini shakllantirish texnologiyasini ko'rsating?

- a) ko'rgazmali va texnik vositalarni surunkali ko'rinishini ta'minlash va ta'lim oluvchilarda ular bilan ishlash ko'nikma va malakalarini oshirish
- b) o'quv jarayonida asosiy zvenolarni qamrab olish
- v) ta'lim oluvchilarda o`qitish vositalari bilan ishlash ko'nikma va malakalarni oshirish
- g) ta'lim vositalari tizimini o`quv majmuasida qo'llash
- d) o`quv jarayonida o`qitish vositalarini belgilangan didaktik funktsiyalarga qarab moslashtirish

2.Hozirgi zamon o`quv vositalarini aniqlang?

- a) moddiy o`qitish vositalari
- b) tabiiy ob'ektlar
- v) EHM vositalari
- g) natural ob'ektlar, o`quv modellari, mulyajlar, maketlar, grafiklar, chizmalar, diagramma, tovushli o`qitish vositalari
- d) universal texnik vositalar

3.Keltirilgan javoblarning qaysisi tarbiyaviy jarayon bosqichlari qatoriga kirmaydi?

- a) ma'lum bilimlar asosida shaxsning qandaydir sifatlariga ijobiy munosabatni shakllantirish
- b) ilmiy dunyoqarashni shakllantirish
- v) ma'lum shaxsiy sifatlar va ongli munosabatni shakllantirish
- g) shaxsiy sifatlar namoyon qilishga barqaror qarashlar va e'tiqodlarni shakllantirish
- d) barqaror xulq-atvor malakalarini shakllantirish

4. Pedagogik texnologiyaning ilmiy-metodik asosi nimalardan iborat?

- a) pedagogik tizim nazariyasi, tizimlilik, texnologik yondashuv.
- b) ta'lim-tarbiya qonuniyatlari.
- v) bixioveristik nazariya.
- g) suggestiv texnologiya.
- d) axborot texnologiyasi

5. Yangi pedagogik texnologiyaning faoliyati nimaga qaratilgan?

- a) ta'lim tizimi, mazmuni, o'quv reja, darsliklar asosida o'quv jarayonini loyihalashtirishga yangicha yondashuv.
- b) «ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ni hayotga joriy qilish.
- v) davlat ta'lim standartlarini amalga oshirish.
- g) milliy istiqlol mafkurasi asosida barkamol avlodni shakllantirish
- d) ta'lim jarayonini oldindan loyihalash.

6. Falsafiy asos bo'yicha pedagogik texnologiyalar qanday turlarga bo'linadi?

- a) biogenli, sotsiogenli, psixogenli, informatsion
- b) sinf-dars, guruhli, ja-mali
- v) ijodiy, das-turli, o'yin-li, tizimli, muammoli
- g) dialektik, insonparavar, progmatizm, materialistik

7. Pedagogik texnologiyaning tuzilmasi aks etgan qatorni toping:

- a) tafsifiy, ilmiy, amaliy
- b) kontsptual asos, ta'-lim jara-yonini maz-muni, tex-nologik jarayon
- v) umumpedagogik, predmetli, lokal
- g) muammoli o'qitish, dasturlashtirilgan, tabaqalashtirilgan o'qitish

7. Pedagogik texnologiyalarni qanoatlantiradigan mezonlar nimalardan iborat?

- a) izchillik
- b) boshqaruvga asoslanganlik
- v) samaradorlik
- g) javoblarning barchasi to'g'ri

8. Rivojlangiruvchi ta'limda qo'llaniladigan o'qitish metodlari?

- a) Muammoli, qisman izlanish;
- b) Integrativ, axborot – reproduktiv;
- v) Ko'rgazmalilik, kitob bilan ishlash;
- g) Faqat A va B javoblar to'g'ri.

9. O'qitish texnologiyasi pedagogik strategiya sifatida talaba va o'qituvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish vositalariga qaysi qatorda to'g'ri ta'rif berilgan?

- a) Pedagogik jarayonda shaxsni ko'zda tutishga asoslangan pedagogik texnologiya;
- b) O'quv materialini sxemalar va modellar ishorasi asosida o'qitishni jadallashtirish texnologiyasi;
- v) O'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga qurilgan texnologiya o'qitishni individuallashtirish texnologiyasi va o'qitishni dasturlash texnologiyasi;
- g) Javoblarning barchasi to'g'ri.

10. V.F.Shatalov texnologiyasida qanday maqsadlar nazarda tutiladi?

- a) Bilim, ko'nikmani shakllantirish.
- b) Har qanday individual qobiliyatli bolalarning barchasini o'qitish.
- v) O'qitishni jaddalashtirish.
- g) Malakani shakllantirish.
- d) Barcha javoblar to'g'ri.

11. Prinsip tushunchasi qanday ma'noni anglatadi.

a). Prinsip- yunoncha «prinsipium» so'zidan olingan bo'lib, asos, dastlabki holat, boshqaruvchi g'oya, umumlashgan talab kabi ma'nolarni anglatadi.

b). Prinsip- yunoncha «prinsipium» so'zidan olingan bo'lib asosiy maqsad ma'nosini anglatadi.

v). Prinsip- yunoncha «prinsipium» so'zidan olingan bo'lib, maqsadga eltuvchi yo'l ma'nosini anglatadi.

g). To'g'ri javob berilmagan

12. Pedagogik texnologiya prinsiplari qaysilar?

a). Ilmiylik, nazariya va amaliyot bog'liqligi, onglik

b). Izchillik, tizimlilik, ko'rgazmalilik

v). Tarbiyalovchilik, tizimlilik, onglik.

g). yaxlitlilik, maqsadlilik, egiluvchanlik, yakuniylik, tugallanganlik

2.3. Amaliy mashg'ulotni baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

| Tahlil bosqichi nomi | Tahlil bosqichi mazmuni | Tahlil natijasi | Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari | |
|---|---|-----------------|---------------------------------------|-----------|
| | | | ko'rsatkichi | mezonlari |
| B-B-B-jadvalining "Bilaman" ustuninin to'ldirish | B-B-B-jadvalining "Bilaman" ustuninin to'ldirgani, mavjud bilimlari | | Aniq ilmiy bilimlar | 0,5 |
| Guruhlarda savollarga javob berish | Kichik guruhlarda savollarga javob berish | | To'g'ri va aniq | 0,5 |
| Talabalar uyda tayyorlab kelgan mashg'ulot ishlanmasi | Talabalar uyda tayyorlab kelgan mutaxassislik bo'yicha ishlanmalarni taqdim etishi. | | Aniqlik, asoslanganligi | 1 |
| Testlarni baholash. | Testlarga berilgan javob | | Aniq, to'g'ri | 0,5 |
| "B-B-B-jadvali"ning to'ldirilishi | Har bir guruh tomonidan to'ldirilgan "B-B-B-jadvali" baholanadi | | Aniq xulosaga kelish | 0,5 |

TAKLIF VA MULOHAZALAR

**“Guruh sharoitida o`qitishda tanqidiy fikrlash usullaridan
foydalanish” mavzusidagi
6-laboratoriya mashg`ulotining ta'lim texnologiyasi modeli**

| | |
|---|--|
| <i>Mashg`ulotga ajratilgan vaqt – 2 soat</i> | Talabalar soni- 20-25 |
| <i>Mashg`ulot mavzusi</i> | GURUH SHAROITIDA O`QITISHDA TANQIDIY FIKRLASH USULLARIDAN FOYDALANISH |
| <i>O`quv mashg`ulotining shakli</i> | Laboratoriya |
| <p style="text-align: center;">Mashg`ulot rejasi: Nazariy savollar: 1. Tanqidiy fikrlash, uning mohiyati va asoslari. 2. Kichik guruhlarni tashkil etish va ular bilan ishlash.</p> <p style="text-align: center;">Amaliy ish</p> <p>a) Kichik guruhlar tuzishning turli shakllariga oid misollar topish, uni qo`llash yo`llarini ko`rsatib berish.</p> <p>b) «Klaster», «Sinkveyn», «Insert», «Kubiklar» usullarini mutaxassislik fanni o`qitish jarayonida qo`llashga oid misollar keltirish.</p> | |
| <i>Mashg`ulotning maqsadi:</i> | <p>Talabalarning tanqidiy fikrlash, uning mohiyati va asoslari haqidagi bilim va ko`nikmalari rivojlantiriladi. Kichik guruhlarni tashkil etish usullari bilan tanishtirish hamda kichik guruhlar tuzishning turli shakllariga oid misollar topishni o`rganish.</p> <p style="text-align: center;">«Klaster», «Sinkveyn», «Insert», «Kubiklar» usullarini mutaxassislik fanni o`qitish jarayonida qo`llashga o`rganish</p> |
| <p style="text-align: center;">Talabaning o`quv faoliyati natijalari:</p> <p>- «Fikrlash», «Tanqidiy fikrlash», “ mantiqiy fikrlash” kabi terminlarning mazmunini tushuntirib beradilar;</p> | |

- Tanqidiy fikrlash mohiyatini yoritadilar;
- Tanqidiy fikrlash asoslarini tahlil etadilar;
- tanqidiy fikrlash- bu mustaqil fikrlash ekanligini, axborot tanqidiy fikrlashning natijasi emas, balki uning boshlanishi ekanligini biladilar.
- tanqidiy fikrlashda muammoni aniqlashning ahamiyatini ko'rsatadilar.
- tanqidiy fikrlashda ishonchli dalillarga tayanilishini misollar bilan asoslaydi.
- Ta'limning guruhli shaklining ahamiyati nimada ekanligini tushuntirib beradi.
- Ta'lim oluvchilarni guruhlariga qay tarzda ajratish kerakligiga misollar keltiradi.
- Guruh sharoitida ishlashda va tanqidiy fikrlashga o'rgatishda turli interfaol usullardan foydalanishning qanday samara berishini aytib beradi.
- «Klaster», «Sinkveyn», «Insert», «Kubiklar» usullarini qo'llashga misollar keltiradi.

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar:

1. Kichik guruhlar tuzishning turli shakllariga oid misollar keltiring, uni qo'llash yo'llarini ko'rsatib bering. 1.1. -ga qarang
Eslatma: Har bir talaba ma'ruza materiaallaridan foydalanib kichik guruhlar tuzishga misollar keltiradi
2. «Klaster», «Sinkveyn», «Insert», «Kubiklar» usullarini mutaxassislik fanni o'qitish jarayonida qo'llashga oid misollar keltiring. Eslatma 1-2, 1.3, 1.4, 1.5. -ga qarang
3. O'quv topshiriqlarni bajarishga tayyorlaning, Blitz-savol-javoblarda ishtirok eting.

Muammoli topshiriqni bajaring

Eslatma: : 2.1, 2.2-ga qarang.

Mavzni Insert usulidan foydalanib o'qing

| | | |
|---|---|---|
| Didaktik vositalar | | Ko'rg'zmalar, slaydlar, maxsus texnik vositalar |
| Nazorat shakli: Og'zaki nazorat, savol-javob va laboratoriyaning yozma varianti. | Maksimal ball: 3 b. Talabaga qo'yilgan ball: _____ | O'qituvchi imzosi: _____ |

6- Laborotoriya mashg'ulotining texnologik xaritasi

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|--|---|
| | O'qituvchi | Talaba, guruh |
| 1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (20 minut) | 1.1. Talabalarni mavzuning nomlanishi, maqsadi va rejasi bilan tanishtiradi (1-ilova) | Tinglaydilar. |
| | 1.2. Mavzuning asosiy tushunchalarini taqdim etadi (2-ilova). | Asosiy tushunchalarni bilib oladilar |
| | 1.3. Talabalar "Tanqidiy fikrlash, uning mohiyati va asoslari" matnini "Insert" usulida o'qib chiqishlarini taklif etadi (1.4.) | Berilgan matnni "Insert" usulida o'qib chiqishadi. |
| 2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (50 minut) | 2.1. Kichik guruhlar tashkil etishning yo'llarini esga olishni va unga misollar keltirishni taklif qiladi (1.1,1.2) | Kichik guruhlar tashkil etishga misollar keltirishadi |
| | 2.2. «Klaster», «Sinkveyn», «Insert», «Kubiklar» va boshqa usullarni mutaxassislik fanlarini o'qitishda qo'llashgas oid misollarni so'raydi (1-2, 1.3, 1.4, 1.5) | Uyda tayyorlab kelgan interfaol usullarni mutaxassislik fanlarini o'qitishda qo'llashgas oid misollarni ko'rsatishadi |
| | 2.3. Guruhlarga blits-savollarga javob berishini taklif etadi (2.1.) | Savollarga javob berishadi |
| | 2.4. «Pedagogik texnologiyada interfaol usullarni qo'llashning ahamiyati» mavzusidagi muammoli vaziyat yechimini topishni taklif etadi. (2.2) | Muammoli vaziyat yechimini topishga harakat qilishadi |
| 3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (15 minut) | 3.1. Test savollariga javoblar berishni taklif qiladi (3.1.) | Test savollariga javoblar berishnadi |
| | 3.2. Interfaol metodlarga oid tayyorlangan didaktik materiallarni namoyish etishni so'raydi(3.2) | Didaktik materiallarni namoyish etishadi |
| | 3.4. Amaliy mashg'ulotni baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini, guruhlar va talabalar to'plagan ballarni e'lon qiladi (3.3) | Guruh va talabalarning javoblariga berilgan bahoni eshitishadi |

MAVZU

GURUH SHAROITIDA O'QITISHDA TANQIDIY FIKRLASH USULLARIDAN FOYDALANISH

REJA

Nazariy savollar:

1. Tanqidiy fikrlash, uning mohiyati va asoslari.
2. Kichik guruhlarini tashkil etish va ular bilan ishlash.

Amaliy ish

- a) Kichik guruhlar tuzishning turli shakllariga oid misollar topish, uni qo'llash yo'llarini ko'rsatib berish.
- b) «Klaster», «Sinkveyn», «Insert», «Kubiklar» usullarini mutaxassislik fanni o'qitish jarayonida qo'llashga oid misollar keltirish.

2-ilova

ASOSIY TUSHUNCHALAR

- Tanqidiy fikrlash va unda faollik, mustaqillikning urni. Fikrlar hujumi. Muammoli vaziyatlar va ularni yechish yo'llari. Guruhlar tashkil etishga doir mashqlar, kichik guruhlar bilan ishlash. «Klaster», «Sinkveyn», «Insert», «Kubiklar», «Venn diagrammasi», «Ikki qismli kundalik» metodlari. «BBB», «Bumerang», «Torozi», «Elpigich» strategiyalari. Yozma nutqni rivojlantirish strategiyalari. Yakuniy esse tugrisida tushuncha. Argumentli esse, Modelli dars o'tish texnologiyasi. «Ilgarilangan ma'ruza» texnologiyasi

I. O'QUV MATERIALLAR

1.1. Tanqidiy fikrlash


«Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari» fanlararo dasturida

- «Odam tanqidiy fikrlar ekan, u yoki bu g'oyalar bilan tanishadi, ularni amalga oshirishdagi mumkin bo'lgan oqibatlarini ham e'tiborga oladi. Bunda odam bu G'oyalarni dastlab ma'lum darajadagi ishonchsizlik bilan idrok qiladi va qarama-qarshi nuqtai-nazarlar bilan taqqoslaydi. Ularni asoslash uchun qo'shimcha mulohazalar tizimidan foydalanadi va bular asosida o'z nui-nazarini ishlab chiqadi».



Tanqidiy fikrlash quyidagilarni nazarda tutadi

- Birinchidan, tanqidiy fikrlash- bu mustaqil fikrlashdir. Bunda har bir kishi boshqalarnikidan mustasno holda o'zining g'oyasi, baholashi va ishonchlariga ega bo'ladi.
- Ikkinchidan, axborot tanqidiy fikrlashning natijasi emas, balki uning boshlanishidir. Bilim odamni tanqidiy fikrlashga undovchi motiv bo'lib hisoblanadi.
- Uchinchidan, tanqidiy fikrlash, savolning qo'yilishi va hal qilinishi zarur bo'lgan muammoni aniqlashdan boshlanadi. Insoniyat o'z mohiyatiga ko'ra qiziquvchandir, u biror yangilikni sezar ekan, albatta uning mohiyatini bilishni istaydi.
- To'rtinchidan, tanqidiy fikrlash ishonchli dalillarga intiladi. Tanqidiy fikrlovchi kishi muammoning o'z shaxsiy yechimini topadi va bu qarorni oqilona, asosli dalillar bilan mkstahkamlaydi. U boshqa qarorlar bo'lishi mumkinligini ham tan oladi, lekin o'zi tanlagan qaror boshqalarga nisbatan eng mantiqiy va oqilona ekanligini isbotlashga harakat qiladi.
- Beshinchidan, tanqidiy fikrlash- ijtimoiy fikrlashdir. Har qanday fikr boshqalar bilan o'rtoqlashilganda, bahslashuvda, muhokamada, boshqalar bilan fikr almashganda o'tkirlashadi va chuqurlashadi.



Guruhli ta'limning ahamiyati

- ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi harakati tashkillashadi, bu esa o'quv-bilish jarayonini faollashtirishga, ularda empatiyani, kommunikativlikni shakllantirishga ko'maklashadi;
- Har bir ta'lim oluvchining potentsial imkoniyatlarini rivojlanishi va amalga oshirilishi ta'minlanadi;
- O'quvchilarning bilimi o'zaro hamkorlikda boyiydi, hamkorlikda muammolar yechiladi;
- Guruhda ishlash atrofdegilarga bo'lgan munosabatni o'zgartiradi, «men va ular»dan «biz»ga o'tishni ta'minlaydi va o'zini guruhning bir bo'lagi sifatida his qilish imkonini beradi.



Belgilari bo'yicha kichik guruh tuzish:

- ixtiyoriy yoki noformal belgilari bo'yicha tuzilgan aralash guruhli;
- o'quv darajasi yutuqlari bo'yicha;
- psixologik jihatdan bir-biriga to'g'ri kelishi darajasi bo'yicha.




Soni bo'icha kichik guruh tuzish:

- 2-dan 5 kishigacha- uncha katta bo'lmagan vazifalarni bajarish uchun;
- 5 -dan 7 kishigacha- murakkab vazifalar uchun.



Guruhlarda ishlash qoidalarini qanaqa?

- Ta'lim oluvchilar, guruh a'zolarining majburiyatlarini bilishlari va bajarishlari zarur;
- Har bir a'zo o'rtog'larini fikrini eshitishi lozim.
- Har bir a'zo ishda faol qatnashishi va hamkorlikda ishlashdan bo'yin tortmasligi kerak.
- Har bir a'zo, zarurati bo'lganda yordam so'rashi kerak;
- Har bir a'zo, undan yordam so'raganda, boshqalarga o'z yordamini berishi kerak;
- Har bir a'zo guruh ishining natijalarini bajarishi kerak;
- Har bir a'zo o'zining rolini yaxshi tushunishi va bajarishi kerak;
- Har bir a'zo, konkret vazifani bajarishda, o'zining konkret vazifasini bilishi kerak;



1.2. Klaster tuzish ketma-ketligi:

1. Katta varog' qog'ozning o'rtasiga yoki sinf doskasiga yoxud yozish uchun foydalanish mumkin bo'lgan sathga «kalit» so'z yoki gap yoziladi;
2. Shu mavzuga tegishli deb hisoblangan va xayolga kelgan so'z va gaplar yoziladi;
3. Fikrlar paydo bo'lganda va ularni yozganda fikrlar o'rtasida mumkin bo'lgan bog'lanishlarni belgilash;
4. Fikrlar tugamaguncha yoki vaqt tamom bo'lgunicha xayolga kelgan barcha fikrlar yozilaveradi;
5. Keltirilgan so'z va fikrlar mazmuni va yaqinligiga qarab toifalarga ajratib chiqiladi.

1.3.« Sinkveyn tuzish qoidalari:

1. qator: Mavzu bir soʻz bilan ifodalanadi (odatda ot tanlanadi).
2. qator: Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (2 ta sifat yoziladi).
3. qator: Mavzu doirasidagi hatti-harakatni uchta soʻz bilan ifodalanadi(3 ta feʼl yoki ravishdosh yoziladi).
4. qator: Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va toʻrtta soʻzdan iborat boʻlgan fikr yoziladi.(4 ta soʻzdan iborat jumla yoziladi).
5. qator: Mavzu mohiyatini takrorlaydigan, maʼnosi unga yaqin boʻlgan bitta soʻz yoziladi (mavzuga sinonim soʻz yoziladi).

1.4. Insert usuli

| «V» | « - » | « + » | « ? » |
|--|--|---|--|
| «ha» - oʻqiganlaringiz dan aniq bilgan yoki bilaman deb oʻylagan maʼlumot | «manfiy» - oʻqiganlaringiz, bilganlaringizga qarama-qarashi maʼlumot | «musbat» - oʻqiganlaringiz orasida siz uchun yangi boʻlgan maʼlumot | «savol» - oʻqiganlari- ngizdan siz uchun tushunar- li boʻlmagan yoki shu haqda koʻproq narsa bilishni istagan maʼlumot |

1.5.Kubiklar usuli

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
|---|---|---|---|---|--|
| Buni tasvirlang. Narsaga diqqat bilan qarang (balki faqat xayolingizda) va uni qanday koʻrganingizn i tasvirlang. Ranglari, shakllari, xususiyatlari va hokazolarni | Buni taqqos- lang. Nimaga oʻxshay -di? | U nimalar haqida oʻylashga majbur qiladi? Xayolingizga nimalar keladi? Bir-biriga oʻxshagan yoki farqlanadigan narsalar boʻlishi mumkin (narsalar, odamlar, joylar) Xayolingizga erk bering. Bu narsani siz nima bilan birlashtirishingi z mumkin | Buni tahlil qiling. Uni qanday qilganlar i haqida gapiring. (Siz buni bilishing iz shart emas, oʻylab chiqing) | Buni ishlating. U bilan nima qilishingi z mumkinli gi haqida ayting. Uni qanday ishlatish mumkin? | Yaxshi va yomon tomonlari- ni koʻrsating (dalillar yordamida) Ishonchli dalillarni topishga harakat qiling. Siz xohla- gan barcha dalillarni ishlating- mantiqiy, bemaʼni yoki oʻrtacha. |

II. O`QUV TOPSHIRIQLAR

2.1 Blits-so`rov savollari

| <i>№</i> | <i>Savol</i> | <i>Javob</i> |
|----------|--|--------------|
| 1. | “Tanqidiy fikrlash» so`zining ma’nosi nima u fikrlashdan nimasi bilan farq qiladi? | |
| 2. | Tanqidiy fikrlash asoslarini nimalar tashkil etadi? | |
| 3. | Tanqidiy fikrlashda mustaqil fikrlashning o`rni qanday? | |
| 4. | Ta’limning guruhli shaklining ahamiyati nimada? | |
| 5. | Kichik guruhlarga guruhlarga qay tarzda ajratish mumkin? | |
| 6. | Qanday interfaol usullarni bilasiz. Qachon qo`llagansiz? | |
| 7. | «Klastar», «Sinkveyn», «Insert», «Kubiklar» usullarini qanday qo`llaniladi? | |

2.2. topshiriq

I. Muammoli topshiriq

Vaziyat. «Pedagogik texnologiyada interfaol usullarni qo`llashning ahamiyati».

Vazifa. Siz Pedagogik texnologiyada interfaol usullarni qo`llashning ahamiyati muammolari va yechimlarini ko`rsatib berishingiz lozim.

II. Uslubiy tavsiyalar

1. Muammoviy tahlilning bosqichlari.

Birinchi bosqich – muammoning asosiy mazmunini ajratib olishni taklif qiladi, tadqiqot ob'ektini aniqlab, shakl beradi.

Ikkinchi bosqich – muammoli vaziyatni tahlil qilish – ob'ektning holatini aniqlaydi, asosiy qirralariga e'tibor qaratadi, muammoli vaziyatning hamma tomonlarini tahlil qiladi.

Uchinchi bosqich – muammoni yechish uchun barcha vaziyatlarni ko`rib chiqadi, muqobil vaziyatni yaratadi.

To`rtinchi bosqich – muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab oladi, muammoning Aniq yechimini topadi.

2. Vazifani bajarish ketma-ketligi:

1) Muammoni shakllantiring.

2) Vaziyatni tahlil qiling, sabablarini ko`rsating.

3) Vaziyatdan chiqib ketish harakatlarni izlab toping.

4) Jadvalni to`ldiring.

5) Aniq yakuniy xulosa chiqaring.

3. «Muammoli vaziyat» jadvali.

| Muammoli vaziyat turi | Muammoli vaziyatning sabablari | Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari |
|------------------------------|---------------------------------------|---|
| | | |

III. O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN MATERIALLAR

3.1. Mavzni Insert usulidan foydalanib o'qing va didaktik materiallar tayyorlang

3.2. Test savollariga javob bering

1. «Klaster» so'zi qanday ma'noni anglatadi.

- A. «Klaster» so'zi g'ujm, bog'lam ma'nosini anglatadi.
- B. «Klaster» so'zi 5 qator she'r ma'nosini anglatadi.
- S. «Klaster» so'zi aqliy ujum ma'nosini anglatadi.
- D. «Klaster» so'zi metod ma'nosini anglatadi

2. «Sinkveyn» qanday ma'noni bildiradi?

- A. fransuz tilida «5 katorli she'r» ma'nosini bildiradi.
- B. fransuz tilida «g'ujm, boglam» ma'nosini bildiradi.
- S. inglizcha «aqliy hujum» ma'nosini bildiradi.
- D. inglizcha «munozara» ma'nosini bildiradi.

3. Tanqidiy fikrlashning asosini qanday fazalar tashkil qiladi?

- A. Tanqidiy fikrlashning asosini bilish va o'zlashtirish fazalari tashkil qiladi
- B. Tanqidiy fikrlashning asosini da'vat (chaqiriq), anglash, mulohaza (fikrlash) fazalari tashkil qiladi.
- S. Tanqidiy fikrlashning asosini tushunish va anglash fazalari tashkil qiladi
- D. Tanqidiy fikrlashning asosini da'vat (chaqiriq), fazasi tashkil qiladi

4. «T-chizma» usuli qanday vaqtlarda qo'llaniladi.

- A. Matn bilan ishlash vaqtida qo'llaniladi.
- B. Yangi mavzuni boshlash vaqtida qo'llaniladi
- S. Munozara vaqtida qo'shaloq javoblar (ha/yo'q, tarafdor/ qarshi) yoki taqqoslash, zid javoblarni yozish uchun qo'llaniladi
- D. Aniq fanlarni o'qitish jarayonida qo'llaniladi.

5. «Innovatsiya» - so'zi qanday ma'noni bildiradi?

- A. yunoncha- asosiy g'oya ma'nosini
- B. inglizcha - yangilik kiritish ma'nosini
- S. inglizcha – tadqiqot o'tkazish ma'nosini
- D. yunoncha – metod ma'nosini

6. Integratsiya kanday ma'noni anglatadi:

- A. Yakkalashtirish
- B. Xususiylashtirish
- S. Umumlashtirish
- D. Ajratish

7. Qaysi qatorda muammolikning to'rtinchi darajasi (sathi) ifodalangan?

- A) O'qituvchi muammoni qo'yadi, o'quvchilar esa mustaqil yoki o'qituvchining raxbarligi ostida muammoni yechadilar;
- B) O'quvchi muammoni o'zi qo'yadi va uni o'qituvchi yechadi;
- V) O'quvchi muammoni o'zi qo'yadi va uni yechadi;

G) O'quvchi muammoni qo'yadi. o'qituvchi esa uni yechishga yordam beradi.

8. Muammoli vaziyatning belgilari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni belgilang.

A) Talabaga notanish faktning mavjud bo'lishi;

B) Vazifalarni bajarish uchun talabaga beriladigan ko'rsatmalar;

V) Yuzaga keladigan bilish mashaqqatini hal qilishda shaxsiy manfaatdorlik;

G) Barcha javoblar to'g'ri.

9. Didaktik o'yinli darslarni o'tkazishda qanday talablarga amal qilinadi?

A) Didaktik o'yinli darslar dasturda qayd etilgan ta'limiy. tarbiyaviy. rivojlantiruvchi maqsad va vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi;

B) Muhim muammolarga bag'ishlanishi va ular o'yin davomida hal qilinishi;

V) Mazkur darslarda didaktik prinsiplarga amal qilinishi va ulkan samaraga erishish;

G) Javoblarning barchasi to'g'ri.

10. O'yinda ishtirok etuvchilar soniga ko'ra didaktik o'yinlar qanday turlarga bo'linadi?

A) Individual, guruhli, ommaviy o'yinlar.

B) Ijodiy, ishbilarmon, rolli o'yinlar.

V) Konferentsiya, syujetli –rolli, o'yin mashqlar.

G) Zakovatni rivojlantiruvchi, bilimlarni nazorat qiluvchi, bilimlarni mustaxkamlovchi o'yinlar.

3.3. Amaliy mashg'ulotni baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

| Tahlil bosqichi nomi | Tahlil bosqichi mazmuni | Tahlil natijasi | Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari | |
|---|--|-----------------|---------------------------------------|-----------|
| | | | ko'rsatkichi | mezonlari |
| Insert jadvali asosida o'qish | Insert jadvali asosida o'qish | | Aniq bilgani | 0,5 |
| Guruhlarda savollarga javob berish | Kichik guruhlarda savollarga javob berish | | To'g'ri va aniq | 0,5 |
| Talabalar uyda tayyorlab kelgan interfaol usullar asosdagi ishlanmasi | Talabalar uyda tayyorlab kelgan interfaol usullar asosdagi mashg'ulot ishlanmalarini taqdim etishadi | | Aniqlik, asoslanganligi | 1 |
| Testlarni baholash. | Testlarga berilgan javob | | Aniq, to'g'ri | 0,5 |
| Muammoli vaziyatni yechish | Muammoli vaziyatni yechishadi | | Aniq xulosaga kelish | 0,5 |

TAKLIF VA MULOHAZALAR

**“O`quv keyslari haqida tushuncha” mavzusidagi
7- laboratoriya mashg`ulotining ta'lim texnologiyasi modeli**

| | | |
|---|---|--|
| Mashg`ulotga ajratilgan vaqt – 2 soat | | Talabalar soni- 20-25 |
| Mashg`ulot mavzusi | | O`QUV KEYSLARI HAQIDA TUSHUNCHA |
| O`quv mashg`ulotining shakli | | Laboratoriya |
| Mashg`ulot rejasi: | | |
| Nazariy savollar: | | |
| 1. Keyslar va ularning mohiyati. | | |
| 2. Keysni ishlab chiqish tizimi. | | |
| 3. Keys mazmuniga qo`yiladigan talabalar. | | |
| 4. Talabalar tomonidan keysni yechish texnologiyasi | | |
| 5. O`quv keyslaridan foydalanish yo`llari. | | |
| Amaliy ish | | |
| a) Turli o`quv keyslari- muammoli vaziyatlar to`plamini tuzish ustida mashqlar bajarish (Pedagogika va mutaxassislik fanlari misolida) | | |
| Mashg`ulotning maqsadi: | Talabalarni Keyslar va ularning mohiyati, keysni ishlab chiqish tizimi, keys mazmuniga qo`yiladigan talabalar, talabalar tomonidan keysni yechish texnologiyasi, o`quv keyslaridan foydalanish yo`llari bilan tanishtirish. | |
| | Turli o`quv keyslari- muammoli vaziyatlar to`plamini tuzishga o`rganish | |
| Talabaning o`quv faoliyati natijalari: | | |
| o Keys, unda bayon qilingan vaziyat tushunchalarini izohlab beradi. | | |
| o Kyes tipologiyasi haqida ma`lumotga ega. | | |
| o Keyslar va ularning mohiyatini aytib beradi. | | |
| o Keysni ishlab chiqish tizimini sanab beradi. | | |
| o Keys mazmuniga qo`yiladigan talabalarini izohlaydi. | | |
| o keysni yechish texnologiyasini izohlab beradi. | | |
| o Kyesda muammoning ifodalanishini biladi. | | |
| o Mutaxassislik fani misolida turli o`quv keyslari- muammoli vaziyatlar vujudga keltirishga oid misollar keltiradi | | |
| Mustaqil o`rganish uchun topshiriqlar: | | |
| 1. Mutaxassislikka oid biror mavzu bo`yicha `quv keyslari- muammoli vaziyatlar vujudga keltirishga oid misollar keltiring. | | |
| Eslatma: Har bir talaba mutaxassisligi bo`yicha `quv keyslari- muammoli vaziyatlar vujudga keltirishga oid misollar keltiradi. 1.1, 1.2,1.3, 1.4, 1.5,1.6.,1.7. ga qarang | | |
| 2.Mavzuni Insert usuli bilan o`qib chiqing. Eslatma: 2.1- ga qarang. | | |
| 3. O`quv topshiriqlarni bajarishga tayyorlaning, | | |
| a)Mavzuni B-B-B –texnologiyasi asosida o`rganing Eslatma: 3.1.3.2.-ga qarang. | | |
| 4. Mavzu bo`yicha munozaraga tayyorlaning. | | |
| Nazorat shakli: Og`zaki nazorat, savol-javob va laboratoriyaning yozma varianti. | Maksimal ball: 3 b. Talabaga qo`yilgan ball: _____ | O`qituvchi imzosi: _____ |

7- Laborotoriya mashg'ulotining texnologik xaritasi

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|--|
| | O'qituvchi | Talaba, guruh |
| 1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (15 minut) | 1.1. Talabalarni mavzuning nomlanishi, maqsadi va asosiy tushunchalar bilan tanishtiradi (1-ilova) | Tinglaydilar. |
| | 1.2. Mavzu rejasidagi masalalarni taqdim etadi (2-ilova). | Rejadagi masalalarni yana bir esga oladilar |
| | 1.3. Talabalarni guruhlariga bo'linishni taklif etadi. Kichik guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishtiradi | Ikki guruhga bo'linishadi. Guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishadilar |
| | 1.4. "B-B-B" jadvalining "Bilaman" ustunini to'ldirishni so'raydi (3.1.) | "B-B-B" strategiyasining "Bilaman" ustunini to'ldirishadi. |
| 2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (50 minut) | 2.1. Guruhlarga "B-B-B" jadvalining "Bilishni xohlayman" ustunini to'ldirishni so'raydi (3.1.) | "B-B-B" jadvalining "Bilishni xohlayman" ustunini to'ldirishadi |
| | 2.2. Keys haqidagi matnni Insert usulida o'rganishni taklif qiladi(2.1.) | Insert usulida o'rganishadi |
| | 2.3. Guruhlar savollarga javob berishini taklif etadi (3.2.) | Savollarga javob berishadi |
| | 2.4. Talabalarga uyda tayyorlab kelgan kyesga misollarni taqdim etishlarni so'raydi (1.1,1.2,1.3,1.4,1.5) | Talabalar uyda tayyorlab kelgan ishlanmalarini taqdim etishadi |
| 3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (15 minut) | 3.1. "B-B-B-jadvali"ning 3-ustunini to'ldirishni taklif qiladi (3.1) | "B-B-B" jadvalining "Bilib oldim" ustunini to'ldirishadi |
| | 3.4. Amaliy mashg'ulotni baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini, guruhlar va talabalar to'plagan ballarni e'lon qiladi (3.3) | Guruh va talabalarning javoblariga berilgan bahoni eshitishadi |
| | | |

MAVZU

O`QUV KEYSLARI HAQIDA TUSHUNCHA

ASOSIY TUSHUNCHALAR

- «Keys» tushunchasi va uning mohiyati. Muammoli vaziyatlarni xal etishda keys usulining o`rni. Masofali o`qitish. Keys metodining ijobiy tomonlari. Keys metodidan foydalanish yo`nalishlari. Keys turlari. Klassik keys tiplari.
- Keysdan foydalanish usullari. Keysni muhokama qilish tartibi. Keys mazmuniga kuyilgan talablar. Muammoli vaziyatlarni boshkarishning strategik boskichlari. Yaponcha kayzen usuli. Keyslarning kullanilishiga oid misollar keltirish.

2-ilova

REJA

Nazariy savollar:

1. Keyslar va ularning mohiyati.
2. Keysni ishlab chiqish tizimi.
3. Keys mazmuniga qo`yiladigan talabalr.
4. Talabalar tomonidan keysni yechish texnologiyasi
5. O`quv keyslaridan foydalanish yo`llari.

Amaliy ish

- a) Turli o`quv keyslari- muammoli vaziyatlar to`plamini tuzish ustida mashqlar bajarish (Pedagogika va mutaxassislik fanlari misolida)

I. O'QUV MATERIALLAR

1.1.Keys –texnologiya

Asosiy toifalar va tushunchalar

- Keys-stadi (inglizcha sase – to'plam, aniq vaziyat, stadi **-ta'lim**) **keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni** muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta'lim uslubidir.
- **Keysda bayon qilingan vaziyat** institutsional tizimda (shu o'rinda va keyinchalik - korxonada) diskret (ayni shu) vaqtda tashkiliy hayotdagi tipik muammolarni qayta yaratadigan real yoki sun'iy qurilgan hodisalarning ideal tarzdagi in'ikosidan iboratdir.

1.2. Keys: tarixiy ma'lumot

U ilk marta Garvard universitetining huquq maktabida 1870 yilda qo'llanilgan edi. 1920 yilda Garvard biznes-maktabi (HBS) o'qituvchilari yuristlarning o'qitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish va muhokama qilishni ta'limning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur o'qitish uslubi keng tatbiq etila boshladi.

1.3. Keyslar tipologiyasi

| Tipologik belgilari | Keys turi |
|---------------------|--|
| Asosiy manbalari | 1. Daladagi 2. Kabinetdagi 3. Ilmiy tadqiqotchilik |
| Syujet mavjudligi | 1. Syujetli |

| | |
|--|---|
| | 2. Syujetsiz |
| Vaziyat bayonining vaqtdagi izchilligi | 1. O`tmishdan hozirga kelish rejimidagi keys 2. Vaqt orqaga qaytariladigan keys-xotira 3. Prognostik keys |
| Kyes ob'ekti | 1. Shaxsiy 2.Taskkiliy-institutsional 3.Ko`p sub'ektlil |
| Materialni taqdim etish usuli | 1. Hikoya 2. Esse 3. Tahliliy yozishma 4. Jurnalist tergovl 5. Hisobot 6. Ocherk 7. Faktlar majmui 8. Statistik materiallar majmui 9. Hujjatlar va ishlab chiqarish namunalari majmui |

1.4. Keys texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish

| | |
|--|--|
| I. Keys-texnologiya: umumiy tushuncha | I.1. Asosiy tushunchalar I.2.Ta'limning keys-texnologiyasini tuzilishi |
| II. Talabalar tomonidan keysni yechish texnologiyasi | II.1.Talabalar tomonidan keysni yechish bosqichlari II.2. 1-bosqich- keysni hal qilish bo'yicha individual ishl II.3.2-bosqich- keqs bilan birgalikda jamoa bo`lib ishlash II.3.1. Keysni yechish natijalarini kichik guruhlar tomonidan taqdimotini o`tkazish II.3.2. Jamoa bilan keys ustida ishlash |
| III. Keys –stadini amalga oshiruvchi o`qituvchi faoliyatining mazmuni va prosessual tuzilmasi | III.1. Keys –stadini amalga oshiruvchi o`qituvchi faoliyatining bosqichlari III.2. Tayyorgarlik bosqichi III.2.1. Keysni yaratish III.2.2. Keys texnologiyalarini loyihalashtirish III.2.3. Ta'lim texnologiyasini rejalashtirish III.2.4. Keysni yechish jarayoniga talabalarni |

| | |
|--|--|
| | <p>tayyorlash</p> <p>III.2.5. O`quv uslubiy materiallarning tayyorlanishi</p> <p>III.2.6. O`qituvchining tayyorlanishi</p> <p>III.3. Asosiy bosqich: keys texnologiyalarni amalga oshirish</p> <p>III.3.1 O`quv mashg`ulotiga kirishish</p> <p>III.3.2. O`quv mashg`ulotining asosiy bosqichi</p> <p>III.3.3. O`quv mashg`ulotining yakunlovchi-baholovchi bosqichi</p> <p>III.4. Keys-stadi bo`yicha amaliyot olib boradigan o`qituvchi faoliyatini tahliliy, baholovchi bosqichi</p> |
| IV. Ta'lim keys-texnologiyasining ekspertlik bahosi | Ta'lim keys- texnologiyasining ekspertlik bahosi |

1.5. Misol KEYS

«DESK INVEST»: sotish bozorini kengaytirish uchun marketing strategiyasining tanlanishi» (lavha)

F.M. Nazarova, TDIU

O`quv fani: «Xalqaro marketing».

Mavzusi: «Marketing strategiyasi».

Keysning maqsadi: o`tkazilgan marketing tahlili asosida marketing strategiyasini tahlil etish va baholash malakalarining rivojlantirilishi, uni ishlab chiqish ko`nikmalarining orttirilishidan iborat.

Rejalashtirilayotgan o`quv natijalari: korxona imkoniyatlarini tahlil etish va baholash qobiliyatini rivojlantirish; korxonada marketing strategiyasini tanlash va uni ishlab chiqish malakalarini orttirish; mustaqil tarzda qaror qabul qilish malakalarini egallash.

«DESK INVEST»: sotish bozorini kengaytirish uchun marketing strategiyasining tanlanishi» (lavha)

Keys muammosi: yangi mahsulot bilan raqobatchi bozorga chiqish: imkoniyatlar va xavflar, olib chiqish strategiyasi, yangi brend.

Muammo tuzilmasi:

Bozor tahlili

Bozorga kirib boorish maqsadlari

Narxlar va qadoqlash

Sotish va taqsimlash

Xizmat ko`rsatish va kafolatli xizmatlar

Jamoanchilik bilan aloqalar, reklama va reklama faoliyati

1.6. Keys stadi

Keys stadi – pedagogik o`yin tavsifidagi ta'lim usuli bo`lib, u o`zida intellektual yuksalish va nazorat malakasini mujassamlashtiradi. Unda ishtirokchilarga haqiqiy hayotiy vaziyat bo`yicha fikr yuritish taklif qilinib, muammoni yechish jarayonida o`quv material ham ifodalanadi.

1.7. Keyslarni hal qilish algoritmi

Keyslarni hal qilish algoritmi

1. Topshiriqni berish (darsning texnologik modelini aniqlash)
2. O`qituvchining kirish so`zi (asosiy savollarning qo`yilishi)
3. 4-6 kishidan iborat mikroguruhlar tuzish.
4. Mikroguruhlar faoliyatini tashkil qilish.
5. Mikroguruhlardagi javoblar bilan tanishishni tashkil qilish.
6. Mikroguruhlararo munozara (polilog) tashkil qilish.
7. O`qituvchining vaziyat yechimi to`g`risidagi umumlashtiruvchi so`zi.
8. Talabalarning ekspert tomonidan baholanishi.
9. Ta'lim oluvchilarning mashg`ulot haqidagi fikrlari.
10. O`qituvchining mashg`ulot bo`yicha yakunlovchi so`zi.

2.1. Matnni insert usulida o'rganganda quyidagi jadvaldan foydalanish mumkin

| «V» | « - » | « + » | « ? » |
|--|--|---|--|
| «ha» - o'qiganlaringizdan aniq bilgan yoki bilaman deb o'ylagan ma'lumot | «manfiy» - o'qiganlaringiz, bilganlaringizga qarama-qarashi ma'lumot | «musbat» - o'qiganlaringiz orasida siz uchun yangi bo'lgan ma'lumot | «savol» - o'qiganlaringizdan siz uchun tushunarli bo'lmagan yoki shu haqda ko'proq narsa bilishni istagan ma'lumot |

3. Oquv topshiriqlari

3.1 «B-B-B- strategiyasi

«B-B-B- (bilamiz, bilishni xohlaymiz, bildik) usuli mashg'ulot jarayonida matnni tushunishni kuzatishdagi grafik tashkilotchi hisoblanadi».

B-B-B chizmasi va qoidasi

| Bilamiz | Bilishni xohlaymiz | Bilib oldik |
|---------|--------------------|-------------|
|---------|--------------------|-------------|

Talabalar guruhlariga bo'lingan holda "Keys ishlab chiqish texnologiyasi" mavzusida "Bilamiz?" ustunini to'ldirishadi.

Keyin har bir guruh a'zolari o'zaro kelishilgan holda «Bilishni xohlaymiz» ustuniga mavzu yuzasidan o'zini qiziqtirgan savollarni yozib chiqishadi.

Shundan so'ng talabalar mavzu yuzasidan matn (ma'ruza) bilan to'liq tanishib chiqadilar va jadvalning ikkinchi ustuniga qaytib, o'zlari bilishni xohlagan savollardan qaysilariga javob topganligini belgilab chiqishadi. Savollarga topilgan javoblar uchinchi «Bildik» ustuniga yoziladi. Talabalarni qiziqtirgan qaysidir savolga javob chiqmay qolgan bo'lsa, uni o'qituvchi to'ldirishi yoki uyga vazifa sifatida bilib kelishni topshirishi mumkin.

3.2. Savollarga javob bering

1. Keys-stadi ma'nosi nima?
2. Keys tarixi haqida nimalarni bilasiz?
3. Keyslarning qanday tiplari mavjud?
4. Keysni ishlab chiqish tizimi nimalarni o'z ichiga oladi?
5. Keys mazmuniga qanday talablar qo'yiladi?
6. Talabalar tomonidan keysni yechish texnologiyasini gapirib bering
7. O'quv keyslaridan foydalanishning ahamiyati nimada?

3.3. Amaliy mashg'ulotni baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

| Tahlil bosqichi nomi | Tahlil bosqichi mazmuni | Tahlil natijasi | Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari | |
|--|---|-----------------|---------------------------------------|-----------|
| | | | ko'rsatkichi | mezonlari |
| Insert jadvali asosida o'qish | Insert jadvali asosida o'qish | | Aniq bilgani | 0,5 |
| B-B-B jadvalini to'ldirish | Kichik guruhlarda B-B-B jadvalini to'ldirish | | To'g'ri va aniq | 1 |
| Talabalar uyda tayyorlab kelgan keyslar muhokamasi | Talabalar uyda tayyorlab kelgan keyslarni taqdim etishadi | | Mazmunlilik | 1 |
| Savollarga javob | Berilgan savollarga javoblar muhokamasi | | Aniq, lo'nda | 0,5 |

TAKLIF VA MULOHAZALAR

**“O`qitishning turli interfaol metodlarini qo`llashga doir mashqlar”
mavzusidagi**

8- laboratoriya mashg`ulotining ta'lim texnologiyasi modeli

| | | | |
|---|--|---|--|
| Mashg`ulotga ajratilgan vaqt – 2 soat | | Talabalar soni- 20-25 | |
| Mashg`ulot mavzusi | | O`QITISHNING METODLARINI MASHQLAR | TURLI QO`LLASHGA DOIR INTERFAOL |
| O`quv mashg`ulotining shakli | | Laboratoriya | |
| Mashg`ulot rejasi: Nazariy savollar | | | |
| 1. Pedagogik texnologiyalarning ta`lim jarayonida qo`llanilishi. | | | |
| 2. Interfaol metodlarning ta`lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati. | | | |
| Amaliy ish | | | |
| a) Mutaxassislik bo`yicha noana`naviy shakldagi dars ssenariysini tuzish. Ta`limning maqsadini aniq o`rnatish. | | | |
| b) «Venn diagrammasi», «Ikki kismli kundalik» metodlari. «B-B-B»va yozuv strategiyalarini qo`llashga doir misollar tuzish. | | | |
| Mashg`ulotning maqsadi: | - Ta`limiy - O`qitishning turli interfaol metodlarini mutaxassislik fanlarini o`qitish jarayonida qo`llashga o`rganish | | |
| | - Tarbiyaviy- talabada o`qituvchiga xos bo`lgan iroda, sabr-toqat, ijodkorlik, ilmga intilish, o`z ustida ishlash kabi fazilatlarni tarbiyalash. | | |
| | - Rivojlantiruvchi- talabada pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni doimiy qo`llab borish uchun uchun zamin tayyorlash. | | |
| Talabaning o`quv faoliyati natijalari: | | | |
| • «Pedagogik texnologiya», «Tanqidiy fikrlash», «Innovatsiya», «Interfaol usullar», «muammoli usul», «dasturlashgan usul» kabi terminlarning mazmunini tushuntirib beradilar; | | | |
| • Pedagogik texnologiyalarning turlarini misollar bilan ko`rsatib bera oladi. | | | |
| • Interfaol usullar haqida tasavvurga egalar va o`z fikrini erkin bayon etadi; | | | |
| • Interfaol metodlarning ta`lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini aytib beradi; | | | |
| • Mutaxassislik bo`yicha noana`naviy shakldagi dars ssenariysini tuzadi va ta`limning maqsadini aniq o`rnata oladi; | | | |
| • «Venn diagrammasi», «Ikki kismli kundalik» metodlarini, «BBB»va yozuv strategiyalarini qo`llashga doir misollarni o`z mutaxassislik fani misolida keltira oladi. | | | |
| Mustaqil o`rganish uchun topshiriqlar: | | | |
| 1.1. «Yangi pedagogik texnologiyalarning istiqbollari» mavzusida esse yozib kelish. | | | |
| Eslatma: 3.1-ga qarang. | | | |
| 2. Guruhlarda ishlash qoidasi bilan tanishib chiqing. Eslatma: 2.1, 2.2-ga qarang. | | | |
| 3. O`quv topshiriqlarni bajarishga tayyorlaning. Eslatma: 1.1, 1.2, 1.3.1.4.1.5.-ga qarang. | | | |
| 4. Mavzu bo`yicha suhbat va bahs munozaraga tayyorlaning. | | | |
| Nazorat shakli: Og`zaki nazorat, savol-javob va laboratoriyaning yozma varianti. | Maksimal ball: 3 b. Talabaga qo`yilgan ball: | | O`qituvchi imzosi:_____ |

8- Laborotoriya mashg'ulotining texnologik xaritasi

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|--|--|
| | O'qituvchi | Talaba, guruh |
| 1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (20 minut) | 1.1. Talabalarni mavzuning nomlanishi, maqsadi va rejasi bilan tanishtiradi (1-ilova) | Tinglaydilar. |
| | 1.2. Mavzuning asosiy tushunchalarini taqdim etadi (2-ilova). | Asosiy tushunchalarni bilib oladilar |
| | 1.3. Talabalar ga "Interfaol metodlar" nushunchasiga "Klaster" tuzish(1.4.) | Berilgan matnni "Insert" usulida o'qib chiqishadi. |
| 2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (50 minut) | 2.1.«Venn diagrammasi», «Ikki kismli kundalik» metodlarini, «BBB»va yozuv strategiyalarini qo'llashga doir misollarni o'z mutaxassislik fani misolida keltirishni so'raydi(1-2, 1.3, 1.4, 1.5) | Misollar keltirishadi |
| | 2.2. «Pedagogik texnologiya», «Tanqidiy fikrlash», «Innovatsiya», «Interfaol usullar», «muammoli usul», «dasturlashgan usul» kabi terminlarning mazmunini tushuntirib berishni taklif qiladi | «Pedagogik texnologiya», «Tanqidiy fikrlash», «Innovatsiya», «Interfaol usullar», «muammoli usul», «dasturlashgan usul» kabi terminlarning mazmunini tushuntirib beradilar |
| | 2.3. Guruhlarga savollarga javob berishini taklif etadi (2.1.) | Savollarga javob berishadi |
| | 2.4. Mutaxassislik bo'yicha noana`naviy shakldagi dars ssenariysini tuzish va ta'limning maqsadini aniq o'rnatgan ishlanmalarni ko'rsatishni so'r`ydi | Ta'limning maqsadi aniq o'rnatilgan mashg'ulot ishlanmalarni namoyish qilishadi |
| 3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (15 minut) | 3.1. «Yangi pedagogik texnologiyalarning istiqbollari» mavzusida esse yozishni taklif qiladi | «Yangi pedagogik texnologiyalarning istiqbollari» mavzusida esse yozishadi |
| | 3.2. Interfaol metodlarga oid tayyorlangan didaktik materiallarni namoyish etishni so'raydi(3.2) | Didaktik materiallarni namoyish etishadi |
| | 3.3. Amaliy mashg'ulotni baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini, guruhlar va talabalar to'pagan ballarni e'lon qiladi (3.3) | Guruh va talabalarning javoblariga berilgan bahoni eshitishadi |

MAVZU

**O'QITISHNING TURLI
INTERFAOL
METODLARINI
QO'LLASHGA DOIR
MASHQLAR**

REJA

Nazariy savollar

1. Pedagogik texnologiyalarning ta'lim jarayonida qo'llanilishi.
2. Interfaol metodlarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati.

Amaliy ish


- a) Mutaxassislik bo'yicha noana'naviy shakldagi dars ssenariysini tuzish. Ta'limning maqsadini aniq o'rnatish.
- b) «Venn diagrammasi», «Ikki qismli kundalik» metodlari. «B-B-B» va yozuv strategiyalarini qo'llashga doir misollar tuzish.

ASOSIY TUSHUNCHALAR

- Pedagogik texnologiyalarning ta'lim jarayonida qo'llanilishi. Interfaol metodlarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati. Noana'naviy shakldagi dars. Ta'limning maqsadini aniq o'rnatish.
- «Venn diagrammasi», «Ikki qismli kundalik» metodlari. «B-B-B», yozuv strategiyalari

I. O'QUV MATERIALLAR

I.1. Pedagogik texnologiyalarning turlari:



II. Interfaol metodlarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati.


Pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish ijtimoiy zarurat bo'lib qolgan hozirgi kunda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda ijobiy natijalar bermoqda. Pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiq etilishi jarayonida har bir pedagogik texnologiyaning o'ziga xos jihatlari mavjudligi namoyon bo'lmoqda.

Masalan, didaktik o'yinli texnologiyalardan ijodiy o'yinlar metodi, o'quvchilarni ijodiy izlanishi, mantiqiy fikrlashishni rivojlantiradi va bilim olishga bo'lgan ehtiyojini qondiradi, konferensiya darslari talabalarni bilish faoliyatini kuchaytirishga, ilmiy dunyoqarashni kengaytirishga, ilmiy adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini orttirishga yordam bersa, muammoli ta'lim texnologiyasi o'quvchilarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarini hosil qilish va aqliy faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Dars jarayonida mazkur interfaol usullarning qo'llanilishi mashg'ulotlarga jo'shqinlik baxsh etish bilan birga talabaning bahs- munozara san'atini o'zlashtirishga, o'z fikrini boshqa kishiga bemaol erkin tarzda ayta olishga hohlagan ekstremal holatdan chiqish yo'lini topish, fikr almashish, argumentatsiya, o'z raqiblarini o'zining fikri to'g'ri ekanligiga ishontira olish qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, talabalarning diqqat e'tiborini mustaqil bilim olishga va o'z-o'zini tarbiyalash masalalariga jalb qiladi. Ularda bilimdonlik, xushmuomalalik, notiqlik, vaqtga rioya qilish, boshqalar fikrini hurmat qilish kabi fazilatlarni shakllantiradi. O'quvchilar darsda o'z fikrlarini tortinmay, baralla aytishga o'rganishadi. O'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyati va analitik mushohada qilish ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Qo'llanilayotgan texnologiyalar o'quvchilarning nazariy bilimlarni ixtiyoriy o'zlashtirishlariga, o'z ustida tinimsiz ishlashga, nazariy ma'lumotlarning mohiyatini to'g'ri anglay olish, materiallarni tanqidiy o'rganish, talabalarda tadqiqot ko'nikmalarini shakllanishi kabilarga olib keladi.

1.3. Ta'lim jarayonida o'qitishning "interfaol metodlari"



1.4. Mutaxassislik faningiz bo'yicha noana'naviy shakldagi dars ssenariysini tuzing. Ta'limning maqsadini aniq o'rnatish.

Vazifalarni yanada aniqlash.

Vazifalarni yanada aniqlash maqsadida quyidagi qadamlarni qo'llash mumkin:

- har bir vazifalar guruhini «dars yakunida talabalar quyidagilarni bajara olishlari lozim» deb boshlash;
- har bir vazifani raqamlash;
- har bir vazifani quyidagi fe'llardan boshlash: sanab o'ting, eslang, so'zlab bering, ko'rsatib bering, tanlang, hisoblang va boshqalar.
- har bir vazifani talaba so'zi bilan qo'yish;
- har bir vazifa faqat bitta natijani ko'zlasin;
- har bir vazifa «talabaning keyinchalik o'zini qanday tutishi kerakligiga ishora qilsin»;

vazifalarni shunday yozish kerakki, uning ishlatilishini mezonlash va qanday qilib maqsadga erishilganligini aniqlash mumkin bo'lsin

Xorijiy ta'lim amaliyotida quyidagi o'quv natijalarini darajalash tarqalgan

1. **Tanishtiruv:** mazkur fan sohasidagi asosiy tushuncha va tartiblar bilan tanishuv.

2. Asoslarni o'zlashtirish fan sohasining asosiy tushunchalarini qayta izhor(tasvir) etishni nazarda tutuvchi bosqich.

3. Egallash: fan sohasidagi asosiy tushuncha va tartiblarni muvaffaqiyatli tadbiq etish.

4. To'liq egallash - mohirlik: mazkur fan sohasidagi asosiy tushuncha va tartiblarni samarali qo'llash va qolgan o'quvchilarga bilimlarni va ko'nikmalarni o'zlashtirish va mustahkamlash byicha yordam berish.

1.5. Maqsadni belgilashga misol

Fan: Pedagogika

Mavzu: “Pedagogikaning predmeti, maqsad va vazifalari”

Mashg`ulot maqsadi

I. Bosh maqsad - pedagogika fanining predmeti, maqsad va vazifalarini pedagogika fani bilan tanishish va pedagogik mahorat egallash uchun o`rganish.

II. Oraliq maqsadlar (ta`lim natijalari) - «Ta`lim to`g`risidagi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mohiyati; ta`lim-tarbiya sohasidagi islohatlar maqsadi; «Barkamol avlod- O`zbekiston taraqqiyotining poydevori» nutqida ilgari surilgan g`oyalar; «pedagogika» suzining kelib chiqishi va ma`nosi; Pedagogika fanining maqsad va vazifalari; jamiyat rivojida pedagogikaning urni; pedagogikaning asosiy tushuncha (kategoriya)lari: ta`lim, tarbiya, ma`lumot, rivojlanish, pedagogik faoliyat, pedagogik jarayon, tarbiyaning maqsadi, bilish, anglash, urgatish; Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi; Pedagogika fanlari tizimi; milliy mafkurani shakllantirishda pedagogikaning o`rni kabi masalalarni bilish.

Mashg`ulot maqsadi (davomi)

III. Harakatga teng maqsadlar (Natijaga erishish shartlari)- O`zbekistonda ta`lim-tarbiya sohasida bulayotgan islohatlarga munosabat bildirish; Ta`lim qonuni va milliy dasturning qabul qilinish sabablarini tushuntirib berish; Prezidentimizning «Barkamol avlod- O`zbekiston taraqqiyotining poydevori» nutqidagi asosiy g`oyalarni ajratib, mohiyatini yoritib berish; Pedagogika fanining maqsad va vazifalari, uning asosiy tushunchalari (ta`lim, tarbiya, ma`lumot)ga berilgan ta`riflarni yoddan aytishga tayyorlanish; Pedagogika fanining jamiyat rivojidagi urnini misollar bilan yoritib berish; Pedagogika fanining falsafa, tarix, psixologiya, sotsiologiya, etika, estetika, iktisod, adabiyot fanlari bilan aloqasini misollar bilan izohlab berish; pedagogika fanlari tizimini aytib berish; Milliy mafkurani shakllantirishda ta`lim-tarbiya muassasalarining roli haqidagi uz qarashlarini bayon etish

IV. Erishilgan natijani ulchash me`yori (baholash usuli) - guruhlariga bulingan holda «Ta`lim qonuni va Milliy dastur», «Ta`lim-tarbiya islohati», «Pedagogikaning fanlar bilan aloqasi», «Pedagogika fanlari tizimi» tushunchalariga Klaster tuzish; Pedagogika, ta`lim, tarbiya, ma`lumot suzlariga sinkveyn tuzish; berilgan vaqt doirasida testlar tuplamini bajarish; Mashg`ulot davomida berilgan savollarga javob berish.

1.7. Interfaol metodlar

a) «Ikki qismli kundalik» metodi.

Ikki qismlik kundalik usulidan ham matn bilan ishlash jarayonida foydalanish mumkin. Bu usul birinchidan, mavzu matnini chuqur tushunishga yordam bersa, ikkinchidan, o'quvchilarni ijodiy tafakkurga undaydi, ularning mustaqil fikr yuritishlarini kuchaytiradi. Berilgan matn o'qib chiqilgach, daftar varag'i quyidagi tarzda ikki qismga bo'linadi:

| PARChA | ShARH |
|--------|-------|
| | |

Chap tomondagi «Parcha» deb yozilgan qismga o'quvchilar matn yuzasidan biror parcha yoki ularga qattiq ta'sir qilgan narsa yoki ularni haqiqatda hayron qoldirgan timsol haqida yozishlari kerak. Ehtimol, bu ularga shaxsiy tajribalaridan nimanidir eslatgandir, balki ularni qiziqtirgan yoki o'ylantirib qo'ygandir. Balki ular bu fikrga, narsaga qo'shilmaslar. Balki bu narsa o'quvchi uchun yangilikdir, balki shu narsa mohiyatini tushunib yetmagandir.

Varaqning «Sharh» deb yozilgan o'ng tomoniga chap tomondagi tanlangan parcha (yoki parchalar) ga sharh yoziladi. Bunda nima uchun ushbu parchani tanlab olganligi, bu narsa uni nima haqida o'ylashga majbur etganligi, shu munosabat bilan unda qanday fikrlar tug'ilganligi haqida sharh beriladi.

b) «B-B-B- strategiyasi

«B-B-B- (bilamiz, bilishni xohlaymiz, bildik) usuli mashg'ulot jarayonida matnni tushunishni kuzatishdagi grafik tashkilotchi hisoblanadi».

B-B-B chizmasi va qoidasi

| Bilamiz | Bilishni xohlaymiz | Bilib oldik |
|---------|--------------------|-------------|
| | | |

Talabalar guruhlarga bo'lingan holda mavzu yuzasidan «Bilamiz?» ustunini to'ldirishadi.

Keyin har bir guruh a'zolari o'zaro kelishilgan holda «Bilishni xohlaymiz» ustuniga mavzu yuzasidan o'zini qiziqtirgan savollarni yozib chiqishadi.

Shundan so'ng talabalar mavzu yuzasidan matn (ma'ruza) bilan to'liq tanishib chiqadilar va jadvalning ikkinchi ustuniga qaytib, o'zlari bilishni xohlagan savollardan qaysilariga javob topganligini belgilab chiqishadi. Savollarga topilgan javoblar uchinchi «Bildik» ustuniga yoziladi. Talabalarni qiziqtirgan qaysidir savolga javob chiqmay qolgan bo'lsa, uni o'qituvchi to'ldirishi yoki uyga vazifa sifatida bilib kelishni topshirishi mumkin.


s)

Venn diagrammasi.

Venn diagrammasi bir-birini kesadigan ikki yoki undan ko'p doiralarda ko'riladi, ular o'rtasida yozish uchun yetarli joy qolishi kerak. U g'oyalarni zidlash uchun ishlatilishi yoki ularning umumiy xususiyatlarini (nimada ular kesishadi) ko'rsatishi kerak. Masalan, o'quvchilar Xristofor Kolumb ekspeditsiyalarini Marko Polo ekspeditsiyalari bilan taqqoslaydilar deylik. Venn diagrammasi bir-biriga yopishgan ikki doira bilan birga ushbu ekspeditsiyalar o'rtasida zidlik o'tkazish, ayni vaqtda ularning umumiy unsurlarini ko'rsatish imkonini beradi.

O'qituvchi o'quvchilar juftligidan Venn diagrammasini tuzib, unda tegishli faqat Kolumb va Marko Pologa taalluqli bo'lgan doiralarning ikki qisminigina to'ldirishni so'rashi mumkin. So'ngra juft boshqa juftga qo'shiladi va to'rt kishi o'z diagrammalarini taqqoslashlari, so'ngra o'rtasida, ular ko'rganidek, ikkala ekspeditsiya uchun umumiy bo'lgan xususiyatlar ro'yxatini tuzishlari mumkin.

Venn diagrammasi



Masalan, Kolumbga tegishli ma'lumotlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Portugaliyalik (1451-1501)
2. Yung sotuvchi
3. Xarita chizuvchi
4. U yer dumaloq shaklda deb o'ylardi
5. Savdo-sotiqni rivojlantirish uchun Hindistonga g'arbiy yo'l ochmoqchi bo'ldi
6. Ispan bayrog'i ostida sayohatga chiqdi
7. Dengizchi, sayohatchi
8. Ko'plab dengiz sayohalariga chiqqan
9. Ispaniyadan Yangi dunyo qidirib sayohatga chiqdi
10. «Santa Mariya», «Nina», «Pinta» kemalarida uzoq sayohatga o'tlanadi.
11. Matros (dengichi)lar bilan qarama-qarshiliklar
12. 1492 yil 12 oktyabrda Yangi dunyoni topadi
13. kashfiyotchi, qahramon

Marko Pologa oid ma'lumotlar

1. Venetsiyalik, 1254 yili tug'ilgan
2. Dengizchi, sayohatchi
3. Savdogar
4. Savdo-sotiqni rivojlantirish uchun Sharqqa, Xitoyga sayohatga chiqadi
5. Sayohatga oilaviy chiqishadi
6. 1275 yil Pekinga yetib keladi.
7. Xitoyda yashaydi va ishlaydi
8. 24 yildan so'ng vataniga qaytadi.
9. Uch nafar qizi bo'ladi
10. Sharqqa sayohati haqida kitob yozadi
11. Kashfiyotchi, qahramon

12.1323 yili vafot etadi.

Kolumb va Marko Polo ikkalasiga tegishli jihatlar

A va B

1. Venetsiyalik
2. Sayohatchi, dengizchi
3. Savdogar
4. Kashfiyotchi
5. Jasur va mard
6. Muvaffaqiyatli safar

Guruhli ta'limning ahamiyati

Guruhli ta'limning ahamiyati

- ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi harakati tashkillashadi, bu esa o'quv-bilish jarayonini faollashtirishga, ularda empatiyani, kommunikativlikni shakllantirishga ko'maklashadi;
- Har bir ta'lim oluvchining potensial imkoniyatlarini rivojlanishi va amalga oshirilishi ta'minlanadi;
- O'quvchilarning bilimi o'zaro hamkorlikda boyiydi, hamkorlikda muammolar yechiladi;
- Guruhda ishlash atrofda qilargalarga bo'lgan munosabatni o'zgartiradi, «men va ular»dan «biz»ga o'tishni ta'minlaydi va o'zini guruhning bir bo'lagi sifatida his qilish imkonini beradi.



1.9. Kichik guruhlar tuzish

Belgilari bo'yicha kichik guruh tuzish

- ixtiyoriy yoki noformal belgilari bo'yicha tuzilgan aralash guruhli;
- o'quv darajasi yutuqlari bo'yicha;
- psixologik jihatdan bir-biriga to'g'ri kelishi darajasi bo'yicha.




Soni bo'icha kichik guruh tuzish:

- 2-dan 5 kishigacha- uncha katta bo'lmagan vazifalarni bajarish uchun;
- 5 -dan 7 kishigacha- murakkab vazifalar uchun.



"T -chizma" usuliga misol

| Моддий таълим назарияси | | Формал таълим назарияси | |
|--|---|--|---|
| Ижобий томонлари | Салбий томонлари | Ижобий томонлари | Салбий томонлари |
| Боланинг имконияти етганича кўп билим бериш; Барча соҳаларга оид билимлар тайёр холда берилади; Энциклопедик билимли киши ўзини-ўзи ривожлантиради; Шарқ педагогикасида ҳам комусий билимларга интилишган. | Бола тараккиётига кам эътибор берилиши; Таълим ва тараккиёт ўртасидаги алоқадорликни эътироф этмаслик; Дарслик ва қўлланмаларнинг кенгайиб кетиши; Дарсликларда иккинчи даражали ахборотларнинг кўпайиб кетиши. | Боланинг тараккиётга биринчи даражали иш деб қаралиши; Боланинг турли қобилиятларини ривожлантиришга эътибор бериш; Болани фикрлашга ўргатиш тарбиядан орқада қолмаслиги; Таълим боланинг қобилияти ва қи-зиқиш доирасига мос бўлиши; Тараккий эътирувчи таълим методларидан фойдаланиш. | Барча фанлар бўйича умумий асосларни ҳам тўлиқ берилмаслиги; Тафаккурни формал ривожлантиришга эътибор қаратиб, тафаккур билимларни ўзлаштириш натижасида ривожланишига эътибор бермаслик; Илмнинг кўпплаб соҳаларидан беҳабар қолиш. |



III. ЎЗ-ЎЗИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ УЧУН МАТЕРИАЛЛАР

3.1. «Yangi pedagogik texnologiyalarning istiqbollari» mavzusida esse yozib kelish.

Esse – taklif etilgan mavzuga 1000 dan 5000 gacha soʻz hajmidagi insho.

Esse – bu muallifning ta'kidlab oʻtadigan individual pozitsiyasidagi erkin ifoda etish shakli; qandaydir predmet bo'yicha umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni oʻz ichiga oladi.

Besh daqiqalik esse

Besh daqiqali esse – o`rganilayotgan mavzu bo`yicha olingan bilimlarni umumlashtirish, mushohada qilish maqsadida o`quv mashg`uloti oxirida 5 daqiqa oralig`ida olib boriladi.

O`qituvchi taklif etishi mumkin:

- «Men bu ... haqida nimani o`ylayman» yoki «Nima uchun, mening fikrimga ko`ra ...» savollariga javob bering;

- o`quv mashg`ulotida berilgan talabalar uchun yangi sanalgan g`oyani tavsiflash va sharhlab berish;

- olingan bilim, ko`nikmalar qaerda amaliyotda qo`llanilishini tavsiflash.

Ushbu ko`rinishdagi esse baholanmasligi ham mumkin. Ammo, o`qituvchi juftliklarga ajralish, ishlar bilan o`zaro almashish va yozilganlarni muhokama qilish taklifini berishi mumkin. Ushbu holda o`qituvchi 2-3 ta essenini tanlab tekshirishi mumkin, ularni ovozini chiqargan holda sharhlashi, talabalar bilan muhokama qilishi va xulosa qilishi mumkin.

3.2. Amaliy mashg`ulotni baholash ko`rsatkichlari va mezonlari

| Tahlil bosqichi nomi | Tahlil bosqichi mazmuni | Tahlil natijasi | Baholash ko`rsatkichlari va mezonlari | |
|---|--|-----------------|---------------------------------------|-----------|
| | | | ko`rsatkichi | mezonlari |
| Insert jadvali asosida o`qish | Insert jadvali asosida o`qish | | Aniq bilgani | 0,5 |
| Guruhlarda interfaol metodlarga misollar keltirilishi | Kichik guruhlarda interfaol metodlarga misollar keltirilishi | | To`g`ri va aniq | 1 |
| Talabalar uyda tayyorlab kelgan interfaol usullar asosdagi ishlanmasi | Talabalar uyda tayyorlab kelgan interfaol usullar asosdagi mashg`ulot ishlanmalarini taqdim etishadi | | Aniqlik, asoslanganligi | 1 |
| «Yangi pedagogik texnologiyalarning istiqbollari» mavzusida yozilgn esse. | «Yangi pedagogik texnologiyalarning istiqbollari» mavzusida yozilgn esselar tahlili. | | Mazmun, ijodkorlik | 0,5 |

TAKLIF VA MULOHAZALAR

AXBOROT - USLUBIY TA'MINOT

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident asarlari hamda me'yoriy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: «O'zbekiston», 2000.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni.- T.: 1997. 29-avgust.
3. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» - T.: 1997. 29-avgust.
4. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezonini bo'lishi darkor. «Xalq so'zi» gazetasi. 2006 yil 25 fevral.
5. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir.-T., «O'zbekiston», 2005.
6. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. –T.: «O'zbekiston» 1999.
7. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li. -T.: «O'zbekiston» 1992.
8. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. - T.: «O'zbekiston», 2000 y.
9. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.-T.: «O'zbekiston» 1999.
10. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: «O'zbekiston» 1999.
11. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008.
12. I.A.Karimov Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oiliy maqsadimiz. – T.: “O'zbekiston”, 2008
13. I.A.Karimov. Eng asosiy me'zon – hayot haqiqatini aks ettirish.- T.: “O'zbekiston”, 2009
14. I.A.Karimov. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.- T.: “O'zbekiston”, 2009.
17. I.A.Karimov. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. 2009 yil 5 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2009 yil, dekabr.
18. I.A.Karimov. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasi va senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. 2010 yil, 27-yanvar. Xalq so'zi, 2010 yil, yanvar.

19.I.A.Karimov. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisida ma'ruzasi. 2010 yil, 29-yanvar. Xalq so'zi, 2010 yil, yanvar.

II. Darslik va o`quv qo`llanmalar

1. Azizxo`jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: TDPU, 2003.
2. В.Беспалько. Слагаемые педагогической технологии. -М.: Педагогика, 2000 .
3. В.Беспалько. Персонафицированное образование //Педагогика, 1998. №2.-с.12-17.
4. Волжский А. Методика воспитательной работы с молодежью. – М. 2003.
5. Зиёмухаммадов Б., Абдуллаева Ш. Илгор педагогик технология: назария ва амалиёт. «Маънавият асослари» дарси асосида ишланган услубий кўлланма - Т.: 2001.
6. Замонавий таълим технологиялари: мазмуни, лойихалаштириш ва амалга ошириш. Экспресс кўлланма. -Т. 2001. ТАСИС лойихаси.
7. Ilg`or pedagogik texnologiyalar asosida dars o`tish yo`llari. O`quv uslubiy ishlanmalar to`plami. -T.: TDIU. 2005.
8. X.Ibragimov.Sh.Abdullayeva.Pedagogika nazariyasi. T., “Fan”, 2008 y
9. Ишмухаммедов Р. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. – Т.: ТДПУ, 2005.
10. Ишмухамедов Р.Ж. Болаларни тарбиялаш ва соғломлаштириш ишларида педагогик технологиялар (ўзбек ва рус тилларида). – Т.: УДАП, 2004.
11. Йўлдошев Ж., Усмонов С. Педагогик технология асослари.- Т.: “Ўқитувчи” 2004.
12. Калдибекова А.С., Ходжаев Б.Х. Ўқувчиларнинг билиш фаоллигини ошириш йўллари – Т.: ТДПУ, 2006.
13. Колеченко А. К. Энциклопедия педагогических технологий – СПб.: КАРО, 2005
14. Монахов В.М. Аксиоматический подход к проектированию пед. технологии, - М.:Педагогика. 1997г.
15. Новый педагогические и информационные технологии в системе образования. М. «Академия», 2002
16. Педагогик ва ахборот технологиялари: ютуқлар ва истиқболлари. -Т.: ЎзПФИТА. 2003.
17. Педагогика В.А.Сластенин, И.Ф.Исаев, А.И.Михенко, Е.Н.Шиянов. Москва. «Школьная пресса». 2004
18. Педагогические технологии / Под. ред. Кукушина В. С. – М.: 2006.

19. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат – Т.: Фан, 2006.
20. Подласый И. П. Педагогика В 2 кн. – М.: ВЛАДОС, 2003.
21. Решетников П. Е. Нетрадиционная технологическая система подготовки учителей: рождения мастера. -М.: «Владос». 2000.
22. Сайидахмедов Н.С. Педагогик технология таҳлил, таъриф, мулоҳаза. Маърифат 1998й, 24 июнь.
23. Сайидахмедов. Янги педагогик технологиялар.- Т.: «Молия» 2003.
24. Селевко Г. Педагогические технологии на основе дидактического и методического усовершенствования УВП – М.: 2005.
25. Селевко Г. Педагогические технологии авторских школ – М.: 2005.
26. Тожиев М., Салахутдинов Р., Баракаев М., Абдалова С. Таълим жараёнида замонавий аҳборот технологиялари.-Т.: ТДИУ,2001.
27. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг тадбиқий асослари. – Т.: 2005.
28. Толипов Ў., Усмонбоева М.. Педагогик технология: назария ва амалиёт. –Т.: «Фан» 2005.
29. Фарберман В.Л. Илғор педагогик технологиялар.- Т.: «Фан», 1999.
30. Фарберман Б.М. Илғор педагогик технологиялар 8-9 апрел, илмий-назорий семинар -Т., 1989.
31. Фарберман Б. Л. Передовые педагогические технологии. -Т. «Фан», 2000.
32. Фарберман Б. Л. Раздаточные материалы методического семинара по передовым педагогическим технологиям. Т. 13-14-15 июня 2005.

III. Internet saytlar

1. www.bilim.uz.
2. [http.philosophy.albertina.ru](http://philosophy.albertina.ru).
3. www.history.ru.
4. www.philosophy.com.
5. www.gov.uz - Ҳукумат сайти
6. www.press-service.uz - Президент сайти
7. www.edu.uz - Вазирлик сайти
8. www.ziyo.edu.uz - Вазирлик сайти
9. www.performance.edu.uz - Вазирлик сайти
10. www.tseu.fan.uz - ТДИУ сайти
11. www.tseu.uz - ТДИУ сайти
12. <http://www.edustorng.ru/main/book/pedagogtechno.htm>
13. <http://dl.nw.ru/theories/technologies>

IV. Virtual kutubxona elektron darsliklari va o`quv qo`llanmalari.

1. Очилова Г. Педагогика. электрон дарслик.- Т.: ТДИУ, 2005.

MUNDARIJA

Kirish

3

1. Pedagogik texnologiyalar mohiyati va ahamiyati
2. Pedagogik texnologiya konsepsiyasining rivojlanish tarixi
3. Ta`limni didaktik loyihalash
4. Didaktik jarayon pedagogik texnologiya asosi sifatida
5. Pedagogik texnologiya tamoyillari
6. Guruh sharoitida o`qitishda tanqidiy fikrlash usullaridan foydalanish
7. Ta`lim jarayonida o`quv keyslarini qo`llash
8. O`qitishning turli interfaol metodlarini qo`llashga doir mashqlar.

Axborot - uslubiy ta'minot